

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

*5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi*

ABDULLAYEV RUSTAMBEK JONIBEKOVICHNING

**«BADIY ASARLARDA HARBIY ATAMALARNING
QO‘LLANILISHI»**

(Oybek asarlari misolida)

mavzusidagi

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

NUKUS 2014

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek tilshunosligi kafedrası yig‘ilishining 2014-yil «___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.n. M.Xudayarova
Ilmiy rahbar:	p.f.n. Sh.Bo‘ranova

Abdullayev Rustambek Jonibekovichning «**Badiiy asarlarda harbiy atamalarning qo‘llanilishi**» (Oybek asarlari misolida) mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo‘yildi.

«___» _____ 2014-yil

DAK kotibi:

REJA:

Kirish:

1. Harbiy terminlarning o'rganilish tarixidan qisqacha ma'lumot.

Asoslama.

Mavzuning dolzarbligi uni o'rganishning ahamiyati

I BOB. OYBEKNING «QUYOSH QORAYMAS» ROMANIDA ISHLATILGAN HARBIY TERMINLARNING BA'ZI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA USLUBIY QO'LLANILISHI.

- 1- O'zlashgan harbiy atamalar
- 2- Harbiy atamalarning mavzuviy tasnifi
- 3- Harbiy atamalarning uslubiy qo'llanilishi

II BOB. «QUYOSH QORAYMAS» ROMANIDA ISHLATILGAN HARBIY TERMINLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

- 1- Harbiy atamalarning affiksatsiya usulida yasalishi
- 2- Harbiy atamalarning kompozitsiya usulida yasalishi
- 3- Harbiy leksikada obbreviatura va kalkalash usuli.

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

1. Harbiy terminlarning o'rganilish tarixidan qisqacha ma'lumot

Har bir til, u qabila tilimi yoki milliy tilmi, kam taraqqiy etgan tilmi yoki yuqori darajada rivojlangan tilmi, o'zining ma'lum miqdordagi so'z boyligi, til birliklariga ega bo'ladi. Konkret tildagi so'zlar yig'indisi o'sha tilning **lug'at tarkibini**, ya'ni so'z fondini tashkil etadi. Lug'at tarkibi o'zicha muayyan tilda ishlatiladigan barcha so'zlarni qamraydi.¹

Demak, harbiy leksika ham mazkur lug'at tarkibida ma'lum o'rinni tashkil qiladigan, tilimiz kabi uzoq tarixga ega bo'lgan leksik birlikdir. Ular lug'at tarkibining harbiy tushunchalar, qurol-aslahalar nomlarini bildiruvchi lug'aviy birlikdir. Bularning bir qismi harbiy leksikaga daxldor *lashkar, navkar, jang, jangoh, sarkarda, sarkarda, chodir, shamshir, gurzi* (to'qmoq shakldagi harbiy qurol), *kamon, kamongar* || *kamonsoz* || *kamonkash, xanjar* va shu kabi atamalardir. Ikkinchi guruhi esa bu sohadagi **granata, protivagaz, mina, tank, komanda, komandir, kapitan, pulyomyot, avtomat, batalon, armiya** kabi harbiy sohaga oid minglab terminlar ham o'zbek tili lug'at tarkibida muhim o'rinni ishg'ol qiladi.

Ma'lumki, tilning rivojlanishi dastlab uning leksikasida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, til xalq turmushi bilan birga yashaydi. Buni tilning lug'at tarkibisiz, ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid atamalarisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki tilning lug'at tarkibini boyitishda asosiy manbalardan biri turli kasb-hunar vakillarini birlashtiruvchi ijtimoiy ishlab chiqarishdir.

Kasb-hunarlariga ko'ra har xil ishlar ishlab chiqarishning rivojlanishi hamda tarixiy shart-sharoitga ko'ra yangi-yangi terminlardan foydalanadi. Bu o'rinda o'zbek tilida tarixan mavjud **kamon, shamshir, zambarak, lashkar, sarkarda, sardor** kabi fors-tojik tilidan o'zlashgan harbiy terminlar o'rnida rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan **shtik, soldat, granata, minomyot, pulemyot, batalon, katusha, kamandir, kapitan, sanaryad** singari qator yangi atamalar

¹ Begmatov E. O'zbek tili leksikasining ijtimoiy tarixiy asoslari. Kitob «O'zbek tili leksikologiyasi» «Fan» Toshkent 1981 41-b

ishlatilayotganligini alohida ta'kidlash kerak. Bu fikrga Oybek ijodida aktiv ishlatilgan **okop, blindaj, shlyom, tikanli sim, shinel, DZOT, sanbat, kombatch, kaska, avtomat, granata, komandir, mina** singari juda ko'p harbiy atamalar jonli guvohdir.

Bizning xulosamiz rus tilshunosi L.A.Kapanadzening tubandagi fikri bilan yana bir marta isbotlanadi:

«Nutqning terminlashuvi jarayonining asosiy sabablari va harakterlantiruvchi omillari ijtimoiy voqelikni o'zidadir, ya'ni bular ekstrolingvistik omillar bo'lib, fan va texnikaning yuksak taraqqiyoti, fanning jamiyatdagi rolining keskin ortishi, savodxonlik darajasining ko'tarilishi, ilmiy bilimlarning rodio, kino, televidenie orqali keng targib qilinishidir»²

Tarixiy manbalardan ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari ko'pgina urushlarni o'z boshidan kechirganlar. Bu urushlar tufayli ularning o'ziga xos harbiy san'ati, texnikasi, strategiya va taktikasi rivojlangan. Bularning ifodasi sifatida ishlatilgan so'z-terminlar A.Matg'oziev va H.Dadaboevlarning to'g'ri ta'kidlaganidek, harbiy terminlar tarixiga misoldir.³ Ayni ma'noda tarixan qo'shin va uning qismlarini ifodalovchi terminlarga e'tibor bering.

1. Mahmud Niyoz yasovulboshi **cheriki** birla va Xudoynazar devonbegi **lashkari** bila Dashti qipchoqqa bordi.

2. Keladur orqadin o'n ming suvori.

3. Har tarafdin cherik **yasoviga** oro berib, etib bordi **qo'l-qo'l** va **dasta-dasta** bo'lib. O'z **to'figa**.

Bu misollarda ajratib ko'rsatilgan leksemalar-harbiy terminlar: *cherik*|| *lashkar* so'zlari o'zaro sinonimdir, ular umumiy tushuncha bo'lgan *armiya* so'zi ma'nosini ifodalaydi.

Shuningdek, *qo'l*, *dasta*, *to'p* so'zlari ham o'zaro sinonim bo'lib, otryad degan ma'noni anglatadi, **yasov** termini esa **saf** so'ziga ma'nodoshdir.

² Leksika sovremennogo russkogo literaturnogo yazika. Moskva, 1968

³ Matg'oziev A. Harbiy terminlar tarixiga doir. O'ZTA, 1974, 1-son, 46-b. Dadaboev H. Eski o'zbek tilida harbiy terminlarning qo'llanilishi. O'ZTA, 1981, 2-son, 31-38-b

Tarixan askarlar piyoda va otliq bo'lgan. Ulardan piyoda askarlarga nisbatan **cherik** (askar) so'zi, otliq askarlarga nisbatan esa **suvori** so'zi ishlatilgan: Piyodau **suvori** hamdast. (O'ZTA 1974, 1-son. 46-47-b)

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda harbiy leksikada qo'shin va uning qismlarini ifodalovchi **o'ng qanot, chap qanot** so'z birliklari ifodalangan ma'noda XIX asrda **burangor** (qo'shinning o'ng tomoni) **juvangor** (qo'shinning chap tomoni) so'zlari ishlatilgan. Ba'zan ayni ma'noda **chap va rost** so'zlari ham qo'llangan: **Burangorda** Sulton Mahmudxonni muqarrar qildi, **Juvongorda** Ibrohimbiy mang'itni nomzod qildi. Sipohning **chap** va **rostin** orasta qildi.

Xullas, o'zbek tili harbiy leksikasida XX asr boshlarida **ilgor** (qo'shinning oldingi qismi), **yazak** (kechasi qo'shinning oldingi qismini kuzatib boruvchi o'triyad) *burongar, juvongar, cherik, lashkar, qo'l, dasta, to'p, yasov* kabi atamalar XX asr harbiy leksikasi atamalari sifatida faol iste'molda bo'lganligi aniq va tarixiy haqiqatdir.

Quyidagi atamalar esa XIX asr harbiy leksikasida qurol-aslahalar nomini ifodalagan. *Multuk (miltiq), sipar, sovut, dubulga, tark, o'toga* kabilar bosh kiyim nomlarini anglatadi; *tabl, nakoro, tug, bayroq, alam, yalov* so'zlari umuman bayroq, nag'ora ma'nolarini ifodalaydigan tarixan harbiy leksik qatlamga mansub so'zlardir. Tarixiy ekskurs sifatida qayd qilingan harbiy leksikaga oid terminlarning bir qatori hozirgi kunda iste'moldan chiqqan, lug'at tarkibining eskirgan so'zlar qatlamiga mansub bo'lib qolgan: *juvongor, cherik, yasov, tug* kabilar.

Ko'rsatilgan tarixiy terminlarning tarixan ham iste'molda bo'lganligi jamiyat tarixi ob'yektiv qonuniyati bilan izohlanadi. Zero, qadimgi turkiy xalqlar ham qudratli harbiy kuchga ega bo'lganlar. Sinfy jamiyatda ekspluatatorlarning hukmdorligini saqlash, mehnatkash ommaning har qanday noroziliklarini bostirish, tashqi hujumlardan, yurtni himoya qilish yoki boyluk orttirish maqsadida qilinadigan harbiy yurishlar uchun qurolli kuchlarning bo'lishi zaruriy holdir. Shu boisdan eski o'zbek tilida ham harbiy qism va bo'linmalarni anglatuvchi *ilg'or, yazak, burangor, yasov, saf, to'p* kabi so'zlar o'z davrida harbiy leksikaning faol iste'moldagi

atamaları bo'lganligi shubhasizdir. Masalan, qadimgi yodgorliklarda qayd qilinishicha, **tuman** termini («Temur Qutlug'»da V.V.Radlov. Yarlo'ka Temur Qutlug'a Toqtamisha) o'nming kishidan iborat **diviziya**, **ming-ming** jangchidan tashkil topgan qismni anglatgan va h.k.

Demak, o'zbek tili harbiy terminologiyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi o'zbek xalqi tarixi bilan bog'liq ekan.

Tilimizda harbiy terminologiya uzoq tarixi bor. Har qanday tilning harbiy terminologiyasi shu tilning paydo bo'lishi bilan vujudga keladi. Chunki so'zlashishni o'rgangan ibtidoiy odam yegulik topish, yirtqich hayvonlar va o'z dushmanlaridan himoyalash qurollari, vosita va usullari haqida gapirmasligi, ularga nom qo'ymasligi mumkin emas. Lekin o'zbek tilining harbiy terminologiyasi, ayniqsa, XIX asrdan rivojlana boshlagan. Keyingi davrda eski o'zbek tilining harbiy terminologiyasi eng avvalo, o'z ichki imkoniyatlari negizida rivojlanganligi, shuningdek, mo'g'ul, fors, arab tillaridan o'tgan terminlar evaziga boyiganligini ko'ramiz.⁴

Harbiy strategiya va taktikaga oid, qo'shin tuzilishi va qurol aslahalarga oid shu davrda paydo bo'lgan terminlar keyingi asrlarda ham ayrim o'zgarishlar bilan aktiv qo'llanib kelingan: **jangchi**, **navkar**, **sipoh**, **askar**, **jangoh**, **farmon**, **kamon**, **shamshir**, **sarkarda**, **sardor** va shu kabilar.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishidan so'ng o'zbek tili harbiy terminologiyasining boyishi uchun yangi manbaa ochildi.

Tilimiz lug'at tarkibida muayyan o'rinni tashkil qiladigan harbiy terminlarning o'zlashganlaridan bir guruhi rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan harbiy sohaga doir atamalardir. **Masalan**, *artilleriya*, *batareya*, *kamandir*, *serjant*, *leytenant* va shu kabilar fransuz tilidan, *efreytor*, *granata*, *front* kabilar nemis tilidan, *diviziya*, *mayor*, *gospital* singarilar lotin tilidan, *tank*, *snayper*, ingliz tilidan, *rota*, polyak tilidan o'zlashganligi tabiiydir. Chunki ayni holatda rus tili vositachilik rolini bajargan

⁴ Shermuhammedov Ya.Umarov A. Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati. «Fan» Toshkent 1981 6-8-b. (Bu lug'at kelgusida RO'HT shaklida qisqartmada ko'rsatilgan).

xolos. Zero, o'zbek xalqi fransuz, nemis, ingliz xalqlari bilan bevosita aloqada bo'lmagan.

Ayni ma'noda prof. Ergash Ismoilovich Fazilov rus tilining o'zbek tili leksikasiga samarali bo'lganligini to'g'ri qayd qiladi.⁵ Bu hol o'zbek tili lug'atining barcha sohalaridagi kabi uning harbiy terminologiyasida ham sezilarli darajada ekanligini inqilobdan oldingi davr harbiy terminlari va undan keyingi davr harbiy terminlari bilan e'tirof qilish lozimligini taqozo etadi. *Qiyoslang lashkar, armiya, diviziya, kamon, miltiq, minomyot* va sh.k.

Revolutsiyaning dastlabki yillarida harbiy praktikada o'zbek tili rus tili bilan bab-baravar qo'llanib keldi. Qizil armiyaning mahalliy millat vakillaridan tuzilgan milliy qismlarida asosan o'zbek tilidan foydalanilar edi. Lekin 30-yillarga kelib, bunday milliy qismlar o'rniga mamlakatimizdagi barcha xalqlar vakillaridan iborat yagona printsipdagi Qizil armiya qismlari tuzila boshlashi natijasida harbiy soha atamalarini hamma uchun tushunarli bo'lgan yagona tilda harbiy amaliyotda rus tilida olib borilishi hayotiy zaruratga aylanadi. Shu boisdan ham nafaqat rus tili va maxsus harbiy adabiyotlarda, balki ko'pgina turkiy tillarning asl va tarjima asarlari tilida ham **tank, mina, shlyom, protivogaz, granata, vzvod, rota, general, kapitan, komandir, kaska, shinel, efreytor, snaryad, stvol** kabi terminlar shakl va ma'noda o'zgarishsiz ishlatiladigan bo'ldi. O'zbek harbiy terminologiyasi ayni haqiqatning jonli guvohidir.

Harbiy terminlar hozirgi o'zbek tilida asosan ruscha-internatsional so'z va terminlar bilan ifodalanadi:

Aviobomba-aviatsiya bombasi, samalyot va boshqa uchish apparatlaridan tashlanadigan bomba, **aviodesant**-samalyotdan yoki planerdan dushman hududiga tushiriladigan desant, askariy qism; **ad'yutant**-harbiy qism boshlig'i yoki kamandir huzurida uning topshiriqlarini bajarib yuruvchi harbiy xizmatchi **batalon**-piyoda, tank, injener, aloqa qo'shinlarda askariy bo'linma: *O'qchi (piyodalar) bataloni* odatda 3 ta o'qchi va bir **pulemyotchi rotadan** hamda maxsus bo'linmalardan

⁵ Fozilov E. Rus tili do'stlik qardoshlik vositasi. «Fan Toshkent, 1974

tuziladi. (Qarang O.Usmonov, R.Donyorov. Ruscha-internatsional soʻzlar izohli lugʻati. Toshkent. 1965, «FAN» 32, 43, 79-80-b. Zarur oʻrinlarda bu manba RISIL shaklidagi qisqartmada beriladi)

Ajratib koʻrsatilgan oltita atama yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Zero, ayni holat nafaqat harbiy leksikada, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjudligi aksiomadir.

Bu bir. Ikkinchidan, sobiq shoʻrolar davrida til haqidagi siyosat, uchinchidan, armiya safidagi rusiy zabon va turkiy zabon xalqqa mansub millat vakillarining xizmati ular uchun umumiy boʻlgan soʻz va terminlarni qoʻllashni taqozo qiladi. Shuning uchun koʻp millatli qurolli kuchlar safida xizmat qiluvchi millat vakillari uchun umumiy harbiy terminologiyani amalda boʻlishi har jihatdan maqsadga muvofiq deb topildi.

Hozirgi paytda har kuni vaqtli matbuot sahifalarida. Radio va televidenie eshittirishlarida harbiy vatanparvarlik mavzusidagi materiallarda asl va tarjima asarlarida oʻzbek va boshqa turkiy tillarga mushtarak **kapitan, starshina, serjant, blindaj, batalon, mayor, polk, lager, ofitser, polkovnik, patron** kabi koʻplab harbiy terminlar ishlatilayotganligi tilimizda yagona harbiy terminlarning shakllana va takomillasha borayotganligining dalilidir.

2. Harbiy terminlar rivoji, sayqallanishidan qaydlar

Tilimizdagi harbiy terminologiyani rivojlanishi va sayqal topishida Oybek, Shuhrat, I.Rahim, N.Safarov kabi mashhur adiblarning harbiy mavzudagi lavha va ocherklari, qissa va romanlarida ishlatilgan harbiy hayotning turli sohalariga oid soʻz-terminlar muhim oʻrinni egallaydi.

Darhaqiqat, Hakimjon Shamsiddinov toʻgʻri taʼkidlaganidek, adabiyotning voqelik bilan yaqinlashuvi, yozuvchilarning davr masalalariga aktiv aralashuvi, badiiy asarlar mavzutik doirasining kengayganligi badiiy adabiyotda terminologik leksikaning keng qoʻllanilishiga sabab boʻlmoqda⁶ Bu qonuniy, albatta.

⁶ Shamsiddinov H. Badiiy adabiyotda terminlarning funktsiyasi. OʻZTA, 1978, 4-son, 68-71-b

Chunki, badiiy matn qurshovida qator lugʻaviy birliklar (soʻz yoki soʻz birliklari) tamomila boshqa maʼno, aniqrogʻi, fraziologik maʼno ifodalashda muhim tasviriyy vosita vazifasini bajaradi. Masalan, **chakag(i) ochildi** frazemasi, odatda, chaqaloqning yigʻlashiga, sergaklikka qarata aytiladi. Oybek «Quyosh qoraymas» romanida bu frozemani juda mohirona yangi bir hodisa(**pulemyotning oʻq uzishi**) ga koʻchirgan. Adibning u frazemani **Pulemyotning chakagi ochilib ketdi** shaklida qoʻllash juda muvofaqiyatli chiqqan. (Qarang Sh.Rahmatullaev. frazeologik qoʻllash. Hozirgi oʻzbek adabiy tili darsligi 199, 78-b) Ana shu jihatlari bilan Oybek oʻzbek frozeologiyasiga muayyan hissa qoʻshdi.

Mazkur ishda oʻzbek harbiy terminologiyasi taraqqiyotini Oybekning «Quyosh qoraymas» romani misolida tavsif va tahlil qilamiz. Zarur oʻrinlardagina baʼzan adibning sheriyatidan ham misollar berilib, fikrimizga aniqlik kiritiladi.

3. Oybekning harbiy leksikasi terminlarining oʻrganilishidan qaydlar

Lisoniy yoʻnalishdagi tahlilga tortilayotgan Oybekning «Quyosh qoraymas» romani 1943-yilda boshlanib 1958-yilda nihoyasiga yetkazildi. Ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan bu romanda ishlatilgan harbiy terminlarni akademik yozuvchi hali romanni boshlashidanoq 30-yillarda **badiiy tilning terminlashuvini** taʼkidlagan edi. U «*Oʻzbek poeziyasida til*» degan maqolasida adabiy tilning boyish manbalari haqida: «Oʻzbek tili internatsionallashtirgan faniy, falsafiy, texnika terminlari bilan oʻz xazinasini toʻldirmoqda», -deb yozgan edi. (Oybek. Asarlar, 9-tom, 1974, 238-b)

«Quyosh qoraymas» romanida muallif nutqida berilgan quyidagi matn qurshovidagi harbiy terminlar, shubhasiz, adibning mavzu taqozosida badiiy tilning terminlashuvini koʻrsatuvchi lisoniy dalildir: Matnni kuzating.

Front Bektemirga dastlab uncha vahimali koʻrinmadi. **Okoplar, blindajlar, tikanli simlar** unga tomoshaga arziydigan gʻalati narsalar kabi tuyulardi. Qayerdadir **toʻplar** shoshilmasdan gumburlaydi. Ora-sira **pulemyotlar** asabiy taqillab qoʻyadi. Nikolin peshindan keyin **oʻq-dori, qurol-aslaha zapasi**, kelgach, shiddatli **ataka dushmani** surib, yoʻqotgan pozitsiyani qaytarishga qaror qildi.

Uning planicha, **chekinishni qo‘riqlaydigan otryad** (zagraditelniy otryad) himoyasida avvali **piyodalar**, keyin **artilleriya** harakat qilishi kerak. (Oybek. Asarlar, 6-tom, 1971, 14-84-91-b)

Uchta gap tarkibida ishlatilgan 15 tacha harbiy leksika terminlari, tabiiyki, mavzu taqozosida voqelikni haqqoniy tasvirlash g‘oyaviy-estetik printsipiga ko‘ra qo‘llanilgan lug‘at tarkibining o‘z qatlam, umumturkiy leksik qatlam va o‘zlashgan qatlamga mansub atamadir.

Bu kabilarni badiiy matnlar timsolida to‘plash, tahlil qilish o‘zbek atamashunosligi, umuman, o‘zbek leksikologiyasi va frazeologiyasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilm ahliga shu narsa yaqqol ma’lumki, Oybek o‘zbek adabiyoti, madaniyatiga qanchalik beqiyos hissa qo‘shgan bo‘lsa, o‘zbek madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga ham o‘zining katta hissasini qo‘shgan tilshunos olim hamdir. Biz bu o‘rinda uning o‘zbek tili lug‘atidagi mutloqo ekspressivligi yo‘q, **go‘ng, tovuq, qilich, o‘rmalamoq, qotmoq, harom** kabi qator so‘zlarga yangi funktsiya yuklab, ular vositasida ajoyib obraz, sodda, ta’sirchan, til, ravon uslub yaratilganligini eslashning o‘ziyoq kifoya deb o‘ylaymiz: Masxara va kinoyaning zahrini ko‘zlarida yondirib qichqirdi:

-Bundan ko‘ra **go‘ng** titganing yaxshi emasmi, kekxa **tovuq!**

Boy vaziyatini o‘zgartmadi (Oybek. «Qutlug qon» 265-b)⁷

Bir nechitasi **o‘rmalab** kelayotgan edi, granata bilan soldim. Ha ikki-uchi **harom** qotdi (Oybek. «Quyosh qoraymas», 66-b)⁸

Fikrimizcha, go‘шти halol hayvonlarga nisbatan qo‘llaniladigan, **harom o‘ldi**, iborasi, hashoratlarga nisbatan qo‘llaniladigan **o‘rmalamoq, sudralmoq** so‘zi pisib kelayotgan dushmanga nisbatan qo‘llanib, matnning salbiy ta’sirchanlik hissiyotini yanada kuchaytirish uslubiy vazifasini bajargani uchun alohida ahamiyatiga molik muhim haqiqat ob’yekti bo‘la oladi.

⁷ Oybek «Qutlug‘ qon», Toshkent, 1980, 265-b

⁸ Oybek. «Quyosh qoraymas», Toshkent, 1977, 66-b

Oybek nafaqat «Quyosh qoraymas» romanida, balki ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan she'rlarida ham badiiy tasvirning ta'sirchan ifoda tasvir vositalari sifatida harbiy qurol-aslaha nomlaridan **granata, avtomat** kabi so'zlardan o'rinli foydalangan. Hatto ular vositasida ajoyib obrazli vosita-o'xshatishlar yaratgan: **jahannam o'ti**: Matinni kuzating

Pulemyotning o'qi, yomg'iri,
Siljitmasdi olg'a hech kimni,
Yigit olg'a intildi shu dam,
Ko'ksi bilan sudralib ildam.
Yaqin kelgach, to'plab kuchini,
Granatadan ikki uchini-
Otdi yaqin kelgan yov tomon,
Dili qasos istab beomon,
Qo'lidagi **avtomat** shahdam
Otilib ketdi **o'ti jahannam**.

(Oybek Asarlar. 1-tom, 1968, 331-b)

Keltirilgan nasriy va nazmiy parchadagi ajratib ko'rsatilgan lug'aviy birliklardan keyin, ijtimoiy hayotdagi har bir voqea badiiy tilda ham terminologik leksika orqali aks etadi. Adiblar u yoki bu terminni o'z xohishi bilan asariga kiritmaydi, balki, **sharoit va mavzu** taqozosi bilan tasvirlanayotgan voqeaning mantiqidan kelib chiqqan holda maxsus terminlardan foydalanadi.

Faraz qiling. Oybek qo'llagan **okop, blindaj, granata, avtomat** so'zlari o'rnida boshqasini qo'llash mumkinmi?!

Ayni maqsadda ta'kidlanayotgan masala, turli maqolalar hajmidan, umumiy yo'nalishda «Oybek asarlari tili» ruknida muayyan darajada tahlil qilingan. Lekin birgina maqola mustasno qilinsa (*M: Oybek asarlarida terminlarning ishlatilishi*) «Harbiy terminlar» mavzusi alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan. *Faktlarni kuzating* H.Shamsiddinovning yuqorida eslatilgan maqolasida «Quyosh

qoraymas»dan olingan 3 ta gap tarkibida okoplar, tikanli simlar, komanda punkti kabilarning matn qurshovida tasviriy vosita ekanligi qayd qilingan xolos.

Bizning ishimizda esa «Quyosh qoraymas»ning harbiy leksikasini mufassil tahlil qilinadi.

Bundan qariyb 49 yil muqaddam akademik Sh.Shoabdurahmonov «Sharq yulduzi» jurnalining 1956-yil 10-sonida «Oybek romanlarining tili» degan mavzuda ilmiy maqola e'lon qilgan.⁹ Qonuniyki, «Quyosh qoraymas» 1958-yilda nihoyasiga yetgani uchun undagi harbiy terminlar bu maqolada so'z qilinmagan. Filologiya fanlari nomzodi B.Fayzullaev Oybekning «Oltin vodiya shabadalar» kabi asarlarida ishlatilgan dialektizmlarning stilistik xususiyatlarini tadqiq qilgan.¹⁰

Nihoyat, u 1982-yili «Badiiy asar tilida dialektizmlar» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.¹¹ K.Samadov «Oybekning qo'shimchalarini qo'llash»¹² degan mavzuda va H.Shamsiddinov¹³ Oybek asarlarida ijtimoiy hayotning ba'zi sohalariga, jumladan, harbiy sohaga va qishloq xo'jaligi sohalariga oid ishlatilgan ba'zi terminlarni analiz qiladi: ataka, kamandir, artileriya, kultivatsiya, zveno, traktor kabilarni oddiy matnda qo'llanilishidan namunalar keltiradi.

Lekin yuqorida eslatilganlardan umumo'zbek terminologiyasi, jumladan, harbiy terminologiya ham mutloqo o'rganilmagan, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Biz bunday da'vodan uzoqmiz. Quyidagilar bunga isbotdir.

4. Umumiy terminologiyaning o'rganilishidan qaydlar

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki, o'zbek terminologiyasi bir qator tilshunoslar tomonidan o'rganilgan: prof. S.Ibrohimov o'zbek shevalari materiallari asosida professional terminlarni to'plash, tahlil qilish maktabiga asos soldi.¹⁴ Shuningdek, o'zbek terminologiyasining tarkib topishi rivojlanishi masalasida

⁹ Sh.Shoabdurahmonov «Oybek romanlarining tili» «Sharq yulduzi» » jurnalining 1956 yil 10-son 106-116-b

¹⁰ Fayzullaev B. «Oltin vodiya shabadalar» asarida ishlatilgan dialektizmlar. O'ZTA, 1975 3- son, 62-66-b

¹¹ Fayzullaev B. Dialektizme v yazike v xudojestvennix proizvedenii. AKD, Toshkent 1979.

¹² Samadov K. Oybekning qo'shimchalarini qo'llash. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. «Fan» Toshkent 1965. 100-105-b

¹³ Shamsiddinov H. Oybek asarlarida terminlarning ishlatilishi. Tilshunoslik masalalari. «Fan» Toshkent 1978, 153-158-b

O'ZFAN til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori R.Doniyorovning xizmati beqiyosdir.¹⁵ R.Doniyorov, O.Usmonov bilan hamkorlikda nafaqat harbiy terminlar, balki, umuman, o'zbek tilida internatsional so'z-terminlarni o'rganishda ham juda katta xizmat qilgan tilshunoslardan biri hisoblanadi.¹⁶

Termin va terminologiya masalalari bilan shug'illangan ko'pchilik tadqiqotchilar terminga, ilm-fan, texnika, san'at bilan bir qatorda xalq xo'jaligi tarmoqlari va harbiy sohalarga oid maxsus tushunchalarni ifodalovchi vosita sifatida qaraydilar. Chunonchi, terminshunos olim Nasim Mametov termin so'zining qo'llanish doirasi hamda faktlar tahlilidan kelib chiqib, «Tilda fan, texnika yo san'at sohasidagi qo'llanadigan terminlar bilan birga, biror maxsus bilim tarmog'iga xosligi yaqqol ko'rinib turmaydigan terminlar ham mavjuddir. Dalillar nafaqat fan, texnika va san'at sohalaridagina emas, balki kasb-hunar sohalarida ham va umuman inson faoliyatining har qanday sohalarida ham terminlar mavjud ekanligini tasdiqlaydi»,¹⁷ - deb juda to'g'ri ta'kidlaydi. U terminga berilgan mavjud ta'riflar haqida o'z mulohazalarini bayon etib, terminning o'ziga xos xususiyatlarini ma'lum darajada hisobga olgan holda terminga shunday ta'rif beradi: «Ma'lum bir tushunchaning aniq va doimiy ifodasi sifatida qo'llaniladigan so'z yo so'z birikmasi termin deb ataladi»¹⁸

Ta'rifdan keyin uni to'ldirish maqsadida bo'lsa kerak, qo'shimcha izoh ham beriladi: «Kishi *faoliyatining ma'lum bir sohasiga*, ya'ni fan, texnika, sa'nat va kasb-hunar *tarmoqlaridan biriga xos* tushunchalarni ifodalovchi terminlar o'sha sohaning terminologiyasini tashkil etadi»¹⁹

Demak, *vzvod, rota, batalon, diviziya, granat, bomba, mina, pulemyot, minomyot* kabi ko'plab atamalar harbiy soha leksikasining terminologiyasidir. Ular

¹⁴ Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi, II-III «FAN» Toshkent 1959

¹⁵ Doniyorov R. O'zbek tilining ilmiy texnikaviy terminlarining tarixidan «FAN» Toshkent 1973, Doniyorov R. O'zbek tili terminologiyasining ayrim masalalari. «FAN» Toshkent 1977

¹⁶ Usmonov O. Doniyorov R. Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati. «Fan» Toshkent 1965, 1972, (Bu lug'at ishimizda RINSL shaklida qisqartilib yoziladi)

¹⁷ Mametov Nasim. Terminning ta'rifi haqida ba'zi mulohazalar. O'ZTA 1966 1-son. 66-b.

¹⁸ Mametov Nasim. O'sha maqola. O'ZTA 1966 1-son 68-b.

badiiy matnnining leksik vositalardan biri vazifasini bajarishi shubhasizdir. Masalan. Kechqurin *polkovnik* va mayor bilan *oldingi partiyaga* bordim... *snaryad* va *minalar* tushib turadigan yo'llardan yurib, *batalon komanda punktiga* bordik. (Oybek front bo'ylab. 18-b. Keyingi misollarda bu manba **O.FB** shaklida qisqartilib ko'rsatiladi.)

Shunday ekan, ya'ni fan, texnika, san'at yoki kasb-hunar tarmoqlariga oid terminlar o'sha sohaning terminologiyasini tashkil etar ekan, u xolda A.A.Reformatskiyning «Termin uchun maydon (*feld*)-bu muayyan terminologiyadir, ana shu maydondan tashqaridagi so'z terminlik xarakterini yo'qotadi»,²⁰ degan tezisini maqola avtori (N. Mametov) nima sababdan inkor etayotganiga tushunib bo'lmaydi.

Axir har qanday terminning aniq, doimiy va konkret ma'nosi *o'zi mansub bo'lgan* sohada, ma'lum bir *terminologik sismavzuda* belgilanadi.²¹ Masalan, **komanda, komissar, leytenant, rota, armiya** so'zlarining termin sifatidagi ma'nosi harbiy soha doirasida qo'llaniladi.

Shu nuqtai nazardan terminolog olim Saidfozil Akobirovning quyidagi fikri e'tiborga loyiqdir: «Termin ma'lum *bir sohada* (yoki ma'lum bir terminologik sismavzuda) aniq bir sismavzuga ega bo'lgan so'zdir.»²² Boshqacha qilib aytganda, termin ma'lum bir terminologik sismavzuning a'zosi sifatida bir ma'noli so'zdir.²³

O'zbek tilida botanika terminlari ustida ilmiy tadqiqot ishi olib borgan H,A, Jamolxonovning mulohazalari ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi: «*Termin ilmiy fan texnika yoki biror sohada konkret bir tushunchaning shu soha doirasida yashash formasidir. U muayyan terminologiya doirasida bir tushunchani ifoda qilganidan monosemantik xarakterda bo'ladi*»²⁴

¹⁹ O'sha muallif, o'sha maqola, o'sha bet

²⁰ A.A.Reformatskiy Chto takoe termin i terminologii, v sb «voprosi terminologii» Maskva. Izd-vo ANSSSR 1961 str 51

²¹ Tursunova T. O'zbek tili amaliy san'at leksikasi. O'zSSR «Fan» Toshkent 1978, 16-17-b

²² Akobirov S. Terminologiya ishining mazmuni va vazifalari. O'ZTA. 1964 3-son 32-b

²³ Akobirov S. Til va terminologiya. Toshkent. «Fan» 1968 8-b

²⁴ Jamolxonov X.A. Termin, terminologiya va omonimiya hodisalari haqida ba'zi bir mulohazalar. «Ilmiy asarlar»TDPI 87-tom 1972

Demak, termin ma'nosi ilm-fan, texnika, san'at va ishlab chiqarish tarmoqlari, sohalari bilan chegaralangan konkret tushunchalarni anglatuvchi barqaror so'zlar yoki ixcham so'z birikmalaridir.

Harbiy terminlarning izohi masalasida o'zbek leksikografiyasi ham ma'lum yutuqlarga ega. Bu xususta YA.Shermuhammedov va A.Umarovlar tomonidan nashrga tayyorlangan 8000 dan ortiq harbiy terminlarni o'z ichiga qamrab olgan «Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati» diqqatga sazovordir.²⁵

Yana shu fakt ham xarakterliki, harbiy terminlar tarixiy aspektida A.Matg'oziev, A. Ibrohimova va H.Dadaboevlarning ilmiy ishlarida mufassal tahlil qilingan.²⁶

Rus tilshunosligida F.P. Sorokletovning «Rus tili harbiy leksikasi tarixi» deb nomlangan monografiyasi harbiy terminlar tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur ishda XI-XVII asrlar harbiy hayotining barcha sohalariga oid terminlar mufassal analiz qilingan.²⁷

Mazkur ishda o'sha manbalarga suyanan holda Oybekning «Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan harbiy terminlarning ba'zi leksik, grammatik xususiyatlarini tahlil qilishga intilamiz.

Roman sirasiga o'qish natijasida unda takrorlanmagan holda ishlatilgan harbiy terminlar soni 258 ta. Ulardan 165 tasi rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan. 102 tasi esa o'zbekcha, arabcha, fors-tojikcha va umum turkiy tillarga oid.

Eslatilgan statistika bir qator etimologik izohli lug'atlar va ikki tilli tarjima lug'atlarga qiyoslangan holda aniqlandi.

ASOSLAMA

Mavzuning dolzarbligi, uni o'rganishning ahamiyati

²⁵ Shermuhammedov Ya. Umarov A. Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati. «Fan», Toshkent 1981.

²⁶ Matg'oziev A. Harbiy terminlarning tarixiga doir O'zbek tili va adabiyoti (Bu manba ishimizda O'ZTA shaklida yozilmoqda) 1974, 1-son, 46-50-b. Ibrohimov A. «Kelurnoma»da qayd qilingan harbiy terminlar. O'ZTA. 1976, 1-son 79-82-b. Dadaboev H. Eski o'zbek tilida harbiy terminlarning qo'llanilishi. O'ZTA, 1981, 2-son, 31-38-b. Dadaboev H. Eski o'zbek tilidagi mudofaa qurol-yarog'larini ifodalovchi harbiy terminlar. O'ZTA 5-son 14-18-b

²⁷ Sorokletov F.P. Istoriya voennoy leksiki v russkom yazike. IZD. «Nauka» Leningrad. 1970.

O'rganilgan manbalardan ma'lum bo'lishicha, alohida olingan bir adibning ijodida harbiy terminlarning ishlatilish masalasi maxsus mufassal tadqiqot mavzusi sifatida yoritilmagan, faqat ayrim maqolalar hajmidagina tavsifu tahlil ob'yekti bo'lgan. (*Qarang. A.Matgoziev, H.Doniyorov, H.Shamsiddinovlarning O'ZTA jurnalining 1974-yilgi 1-soni, 1978-yilgi 4-soni, 1981-yilgi 2-sonlaridagi maqolalari*)

Biz tanlagan mavzu «Oybek ijodida harbiy leksika» deb nomlandi. Mavzu uchun tadqiqot ob'yekti sifatida adibning ikkinchi jahon urushi mavzusida yaratgan «Quyosh qoraymas» romani tanlandi (1943-1958 yillar) Mazkur matnni sirasiga o'qish natijasida saralangan *okop, blindaj, tikanli simlar, kaska, avtomat, granat. tank, mina, vzvod, rota, shinel, efreytor, snaryad, polk, serjant, batalon* singari yuzlab harbiy leksika atamalari leksik-semantik, grammatik va uslubiy qo'llanishiga ko'ra tahlilga tortildi. Xususan, ular mavjud leksikografik manbalarga qiyosan tavsifu tahlil qilindiki, ayni holat mavzuning **dolzarbligini** isbotlovchi faktdir. Zero, bizning malakaviy ishimizda tavsif-u tahlil qilingan harbiy terminlar, eslatilgan maqolalarda bunday tahlil va tavsif qilinmagan.

Mavzuni o'rganishning ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. «Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili» kursining «Leksikologiya va frozeologiya» bo'limida «So'z va uning ma'nolari», «Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar», mavzulari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki saralangan faktlar o'sha mavzular yuzasidan berilgan bilimlarni amaliy mustahkamlash materiallari vazifasini bajaradi.

2. Badiiy matnni lingvistik yo'nalishda tahlil qilishda: badiiy matnning obrazlilikini taminlashda eng ko'p qo'llanuvchi **badiiy tasvir** vositalaridan biri o'xshatishni aniqlashda asqotadi: **avtomat** ishlab ketdi-o'ti **jahannam**

3. Tanlangan mavzu davrimiz yoshlari uchun alohida **ma'rifiy ahamiyat** kasb etadi. Zero, «Quyosh qoraymas» singari ramanlar mavzusi, estetik g'oyasi yoshlarni otalar jasorati an'analarga hamisha sodiq qolish vatanparvarlik va insonparvarlik his-tuygulari, qahramonlik ruhida kamol topish va yana **kechmishni**

chuqur bilish orqali hozirgi farovon hayot qadriga yetish, porloq kelajakni mustahkamlashga da'vatkorlik ruhida tarbiyalaydi.

4. Pedagogik-ma'naviy jihatdan bo'lgusi mustaqil O'zbekiston askarlarini harbiy terminlar tarixi bilan tanishtiradi: *yasov-saf, miltuk-miltiq, to'p va zanbarak*-tarixan eng kuchli o'qotar qurollari-*pulemyot, artileriya, yalov-bayroq* kabilar.

Ta'kidlangan dolzarb, ilmiy-amaliy va ma'rifiy, pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan mazkur malakaviy ishimiz tarkiban «Kirish», «Asoslama» deb nomlangan qismlar va 2 ta mustaqil boblardan iborat.

Ishning «Kirish»qismida 4 ta masala qayd qilindi: 1. Harbiy terminlar va uning o'rganilishidan qisqacha ma'lumot. 2. Harbiy terminlar rivoji va sayqal topishidan qaydlar. 3. Oybek harbiy leksikasi o'rganilishidan ba'zi qaydlar. 4. Umumo'zbek terminologiyasining o'rganilishidan qaydlar.

Malakaviy ishning birinchi bobi **«Oybekning «Quyosh qoraymas» romanida ishlangan harbiy terminlarning ba'zi leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari»** deb nomlanadi. Mazkur bobda fors-tojik, arab, rus tili va u orqali ovrupa tillaridan o'zlashgan harbiy atamalar tavsifu tahlil qilinadi. Bu bir. Ikkinchidan, harbiy atamalarning mufassal mavzuviy tasnifi ko'rsatildi va nihoyat, harbiy atamalarning matn qurshovida uslubiy qo'llanishi so'z qilindi. Bunday atamalarning frazemalar, poremlar tarkibida ishlatilishi manbalarga qiyosan sharhlandi.

Ishning ikkinchi bobi «Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan harbiy terminlarning grammatik xususiyatlari deb nomlandi.

Bu bobda harbiy terminlarning affiksatsiya usulida yasalishi: *Tankist, razvedkachi*, mazkur bobning ikkinchi paragrafida harbiy atamalarning kompozitsiya usulida yasalishi: *kombat, kuzatish punkti, tikanli sim, to'siq* kabilar, shuningdek, ba'zi abbreviatura: **DZOT**, **DOT** kabilar nazariy manbalarga qiyosan tahlil qilinadi.

Tavsifu tahlillarimizdan kelib chiqqan holda, ishning oxirida mufassal umumiy xulosalarimiz qayd qilindi.

I BOB.

OYBEKNING «QUYOSH QORAYMAS» ROMANIDA ISHLATILGAN HARBIY TERMINLARNING BA'ZI LEKSIK-SEMANITIK XUSUSIYATLARI VA USLUBIY QO'LLANILISHI

*«Biz adabiyotning yetuk kompazitsiyaga ega
bo'lmagan yaxshi asarlarini bilamiz.
Ammo yomon til bilan yozilgan yaxshi
asar bo'lishi mumkin emas» (K.Fedin)*

O'zbek tili leksikasining ijtimoiy-tarixiy asoslari va uning tarixiy etimologiyasi tavsiflangan nazariy manbalarda tilimiz leksikasining boshqa sohalaridagi kabi uning harbiy leksikasida ham tarixan so'z o'zlashtirishning asosiy manbalaridan bo'lmish fors-tojik, arabcha o'zlashmalar ham mavjudligi qayd qilingan. *Masalan. 1. Harbiy tushunchalar, qurol-aslahalar nomini bildiruvchi lashkar, navkar, jang, shamshir, kamon, kamongar, zambarak, to'pponcha* kabilar o'zbek tili leksikasining fors-tojikcha o'zlashmalar qatlamini tashkil qiladi. 2. Harbiy, askar, hamla, asir, mahbus, aslaha, *mudofaa, sulh, istehkom, xandak* singarilar *harbiy* ish, harbiy tushunchalar, qurol-yarog'lar nomlarini ifodalovchi arabcha o'zlashmalardir.

3. Harbiy leksikaning ham taraqqiyoti, rivoji tufayli **front, avtomat, ataka, pulemyot, bombapanoh, tikanli sim to'siq** kabi yuzlab harbiy atamalar rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan harbiy sohadagi turli tushunchalarni ifodalovchi atamalardir.

Malakaviy ish mazkur bobining maxsus bo'limlarida bunday o'zlashmalardan ba'zilarining ma'nolari, ularning badiiy matnda uslubiy qo'llanishi so'z qilinadi.

1. O'zlashgan harbiy atamalar

Ma'lumki, lingvistik tahlil ob'yekti bo'lgan Oybekning «Quyosh qoraymas» romani ikkinchi jahon urushi yillarida muayyan darajada yozilgan-u, ma'lum sabablarga ko'ra o'sha vaqtda tugamay qoladi, oradan ancha yillar o'tganidan so'ng,

1958-yilda «O‘zbekiston madaniyati» gazetasi sahifalarida, 1959-yilda alohida kitob holida bosiladi (O‘zbek adabiyoti ocherklari. II Toshkent «FAN» 1962, 336-bet).

Keltirilgan sanalardan ham ayonkim, 50-yillarda tilimiz terminologiyasi boshqa sohalaridagi kabi uning harbiy terminologiyasi tarkibida ham so‘z-atama o‘zlashtirishning ikkinchi, ya’ni tashqi manbasi hisoblangan rus tili va u orqali boshqa tillardan kirib kelgan atamalar hisobiga o‘zbek harbiy terminologiyasi ham rivojlanish, sayqal topish bosqichiga chiqqan edi. Shu tufayli tahlil ob’yektimizda *umumiy nomda- ruscha o‘zlashmalar* nomida tavsiflanuvchi atamalar ustuvordir. Ana shu boisdan «Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan harbiy so‘z va terminlarning aksariyati o‘zbek tiliga rus tili va u orqali boshqa tillardan o‘zlashganligi, ularning iste’molda faolligi qonuniy va tabiiy holdir.

Ma’lumki, tillarning o‘zaro aloqasi va hamkorligi, bu tufayli yuzaga keluvchi ikki tillilik bir tildan ikkinchi tilga til elementlarining qabul qilinishi, o‘tishi o‘zlashtirish deyiladi. O‘zlashtirish orqali bir tildan ikkinchisiga o‘tgan til elementlari o‘zlashmalar deb nomlanadi.²⁸

O‘zlashgan so‘zlar o‘z ichida aslida o‘zlashma bo‘lgan elementlarni ham saqlaydi. Shu ma’noda tahlil ob’yektimizda rus tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan so‘zlardan ikki tip leksemalar ishlatilgan:

Navodka-navodit (tuzish), **ognomet**-ogon (o‘t-olov otish), **razvedka**-kuzatish, aniqlash, **bombapanoh**, (rus. bombaubijishe), **bombardimon qilish** (rus. bombardirovat) singari rus tilining o‘z so‘zlari; Shuningdek, **ataka**, **granat**, **shampol**, **tank**, **soldat**, **mayor**, **general**, **polkovnik**, **starshina** kabi rus tiliga boshqa so‘zlardan o‘zlashgan so‘zlar.

Demak, o‘zbek tili harbiy leksikasi tarkibiga, rus tilidan til taraqqiyotining keyingi davrlarida (50-yillar) ko‘plab harbiy atamalar ham o‘zlashtirilgan, ular harbiy mavzuda yozilgan o‘zbek romanlarida ifoda tasvirning muhim leksik

²⁸ Begmatov E. O‘zbek tili leksikasining ijtimoiy tarixiy asoslari. O‘zbek tili leksikologiyasi. «Fan», Toshkent, 1981, 83-bet.

vositalaridan biri sifatida adiblar tomonidan qo'llanilgan. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, birinchidan, harbiy leksikaga rus so'zlari o'zlashtirilmoqda: *razvedka*, *razvedkachi* kabi, ikkinchidan, rus tilidagi o'zlashma o'zlar o'zlashtirilmoqda va ular badiiy matnlarda mavzu taqozosida qo'llanilmoqda.

«Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati» hamda «Rus tilining etimologik lug'ati», «Ruscha-o'zbekcha lug'at» kabi manbalarda tavsiflangan harbiy terminlar izohidan chiqarilgan umumlashmalarimiz, shuningdek, «Quyosh qoraymas»da ishlatilgan harbiy leksemalarning statistikasidan ham ma'lumki, asarda ruscha va rus tili orqali o'zlashgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. *Masalan. Armiya, artilleriya, ataka, bomba, batalon, kapitan, vzvod, batareya, rota, granata, gilza* kabilar sirasidagi ko'pgina atamalarni mashhur rus tilshunos olimlaridan N.M. Shanskiy, V.V.Ivanov hamda T.V.Shanskayalar muallifdoshligida tuzilgan lug'atda *ataka, bomba, zalp, leytenant, polkovnik, rota* kabi harbiy soha atamalarining XVII-XVIII asrlarda rus tiliga nemis, fransuz, polyak tillaridan o'zlashganligini ta'kidlaganlar: Masalan, *ataka, zilp, leytenant*-atamaları XVIII asrda nemis tilidan, *bomba* XVIII asrda fransuz tilidan, *rota*-XVII asrda polyak tilidan rus tiliga o'zlashganligi izohlanadi. (Qarang. O'sha mualliflar. Kratkiy etimologicheskiy slovar ruskogo yazika. Moskva 1971, 30, 53, 155, 151, 394).

O'zbek lug'atshunos, tilshunos olimlaridan Olim Usmonov, Renat Doniyorovlar muallifdoshligida tuzilgan «O'zbek tilidagi ruscha internatsional so'zlar izohli lug'at»da harbiy leksikaning turli mavzuviy tasnifiga oid **armiya, binokl, soldat, leytenant, general, mina, tank, shinel** kabi qator atamalarining o'zbek tili harbiy leksikasining rus tili orqaldi boshqa tillardan o'zlashgani izohlangan. (Qarang. O'sha lug'at 63, 84, 432, 248, 116, 285, 244, 511-betlar)

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, tahlil qilinayotgan badiiy matn qurshovida adib ularning aksariyatini o'zbek tilida ayni shunday muqobil leksema-atama yo'qligidan, shuningdek, uslubiy g'alizlikka yo'l qo'ymaslik uchun sa'natkorona mahorat bilan o'rinli qo'llagan.

Faraz qiling: bomba, mina, tank harbiy atamaları o'rnida yana qanday so'z-atamalar qo'llash mumkin?! Yoki **shinelni**-kiygiz kiyim, **kaskani**-temir telpak, **transheyani**-handak desinmi?!

Fikrimizcha, ayni haqiqat o'zbek tilining «Lug'atshunoslik» bo'limi dolzarb muammolarining tadqiqotchilaridan biri filologiya fanlari doktori prof. E.Begmatovning ta'kidlashicha, rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashtirilgan bir qator asli inglizcha, nemischa, grekcha, lotincha, polyakcha, italyancha va boshqa bir qator tillarga oid so'zlar rus tilining o'zi uchun ham o'zlashma qatlamdir. Bu tipdagi so'zlar o'zbek tili uchun xuddi rus tilidan kirgan so'zlardek tuyuladi.²⁹ Ularning o'zbek harbiy leksikasiga kirib kelishida rus tili vosita bo'lgan, xolos.

Biz asarda uchragan barcha o'zlashmalarni emas, balki harbiy sohaga oid so'z-terminlarni lug'atshunoslik manbalariga suyangan holda imkoniyat darjasida etimologik analiz qilib, ularning qaysi tilga oidligini aniqladik. Nihoyat, eng faollaridan namunalar keltirdik. Ba'zilarining semantikasi-ma'nolarini berdik.

Faktlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, rus tili orqali boshqa tillardan kirgan harbiy terminlarning asl manbai g'arbiy Yevropa tillariga mansubdir. Bu jihatdan tubandagi misollar diqqatga sazovordir:

Fransuzcha so'zlar: **armiya, artilleriya, ataka, batalon, bomba, batareya, kapitan, kaska, komanda, komissar, leytenant, partizan, parashut, patron, serjant**, va sh.k.

Bular leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra harbiy sohada turli ma'nolarni anglatadi.

Armiya (rus<fransuz. *armee*)-1. Mamlakatning barcha qurolli kuchlari yig'indisi: harakatdagi armiya (frontdagi qo'shinlar) 2. Quruqlikdagi qurolli kuchlar, qo'shin, lashkar (RINSL 39)

Artilleriya (Rus<fransuz. *artilleria*)-1. Pulemyot (to'p) minamyot va. sh.k otish qurolari majmui: og'ir artilleriya, yengil artilleriya, zenit artilleriya.

²⁹ E.Begmatov. «Ko'rsatilgan manba, 86-bet»

(osmondagi samalyotlarni urib tushiradigan artilleriya) 2. Harbiy qo'shinning pulemyot (to'p), minomiyot singari qurollar bilan qurollantirilgan turi (RINSL 64)

Batalon. (Rus<fransuz *bataillon*). Piyoda, tank, injener, aloqa qo'shinlarida va boshqalarida askariy bo'linma. O'qchi (piyodalar bataloni odatda uch o'qchi va bir pulemyotchi rotadan hamda maxsus bo'linmalardan tuziladi. (RINSL. 79)

General. (Rus<lotin. *generalis*). Qurolli kuchlarning oliy qo'mondonlik va boshliq tarkibiga beriladigan harbiy unvon yoki mansab, shuningdek, shu unvonga ega bo'lgan kishi. Generallik unvoni darjalariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: *general-mayor*, *general-leytenant*, *general-polkovnik*, *Armiya-general* (RINSL 116)

Kaska (Rus<fransuz. *casque*)-mis, po'lat va shu kabilardan yasalgan harbiy qalpoq, esk. **Dubulg'a.** (RINSL. 200)

Kapitan (Rus<fransuz. *capitaine*)-Armiyada katta leytenantdan yuqori, mayordan keyingi ofitserlik unvoni va shu unvonga ega bo'lgan ofitser.

Komandir (rus. harbiy qism, bo'linma, kema va shu kabilarning boshlig'i: *vzvod komandiri*, *tank komandiri*, *kema komandiri*. 2. Ko'chma rahbar xodim: ishlab chiqarish komandiri (RINSL 215)

Keltirilgan misollardan ayonkim, rus tiliga fransuz tilidan o'zlashgan harbiy atamalar rus tilidagi kabi o'zbek tilida ham leksemaning ifoda planiga ko'ra harbiy sohaga oid turli ma'nolarni anglatadi. Qo'llanishi-uslub planiga ko'ra esa badiiy tasvirning leksik vositasi vazifasini bajaradi:

Matnlarni kuzating.

1) Churq etishga tobi yo'q. Bu yolg'iz horg'inlikdan emas, ikki kun ichida ko'rganlari uni (Bektemirni) qandaydir o'ychan, kam gap qilib qo'ygan.

Kichkina stantsiada **batalon** poezddan tushishga ulgurmasdanoq, **bombardimonga** uchradi. Vagonlarning guldiros bilan ag'darilishi, parchalangan relslarning chillakday uchishi, *dod-voy*, *tutun*, *tuproq*-Bektemirning ilk tomoshasi bo'ldi...

Misoldagi tabiiy ofatni ifodalovchi **dod-voy, tutun, tuproq** leksemalarining o'ta o'rinli ishlatilgani ayni matndagi ma'nolarni **batalon, bombardimon** harbiy terminlari bilan mantiqan uzviylikdagina ifoda tasvirning haqqoniyligiga ishonch hosil qiladi.

2) Yo'l boshladi yangi **komandir**,

Sodda yigit-haligi botir.

Otildilar olg'a arslonlar,

Yov jasadi bilan maydonlar

To'ldi, lekin unga yo'q omon.

Ayamasdan urdilar hamon.

Qochdi yov yana tumtaraqay.

Dzot, blindaj buzildi talay

(Oybek asarlari. 1-tom. 1957, 148-b)

DZOT (rus.dzot) drevo-zemlyanaya ognevaya tochka. O'zbek. yog'och, tuproq, loy, shag'al va hokazolardan mustahkam qilib qurilgan harbiy istehkomotish nuqtasi. (RINSL 554)

3) Bunda yotar **komandir-**

Leytenant yo **kapitan...**

Balki baland unvondir,

Rus, O'zbek, Qipchoq, Turkman. (Oybek. 1957, 156-b)

Misollardan ayonkim, rus tiliga o'zlashgan yuqoridagi harbiy atamalar o'zbekcha matnlarda ham o'zlashtirilgan manbasi (ruscha)dagidek semantik vazifada qo'llanilgan.

Ular usluban ifoda-tasvirining leksik vositasi sifatida tasvirlanayotgan voqeaning haqqoniyligini aks ettiruvchi badiiy matnning alohida bir detali vazifasini bajarganligi shubhasizdir.

Nemischa so'zlar: **lager, efreytor, soldat, ofitstser, shtab, granata, gilza, front** kabi. Bular o'rganilayotgan matnda harbiy unvon, qurol-asloha, harbiy o'rin-

joy kabi ma'nolarni bildiradi. Ulardan ba'zilarining ma'nosi va etimologik manbai xususida qaydlar:

Lager (rus<nemis. *lager*)-1. Harbiy qismlarning aholi yashaydigan joydan tashqaridagi vaqtli qarorgohi. 2. Umuman vaqtli qarorgoh: Turistlar lageri, alpinistlar lageri. 3. Harbiy mahbuslar, asirlar qamaladigan joy. (RINSL 244)

Efreytor (rus<nemis *gefreiter*)-a'lochi soldatga beriladigan eng kichik kamandirlik unvoni (RINSL 162)

Shtab. (rus<nemis. *stab*)-qo'shinlarning boshqaruvchi organi: *polk shtabi*, *diviziya shtabi*, *bosh shtab*-davlat qurolli kuchlarning oliy shtabi. **Shtab-kvartira**-shtab qarorgohi, shtab o'rnatilgan joy (RINSL. 515)

Bu kabilar ham o'zbek harbiy leksikasidagi o'zlashma atamalarining ma'lum qismini tashkil qiladi. O'zlashtirilgan atamalar qatorida *fransuzcha*, *nemischa* atamalardan tashqari asl etimologiyasi jihatidan *lotin*, *ingliz*, *polyak* tillaridan ham rus tili orqali o'zlashtirilgan qator atamalar bor. Bu o'rinda ularning barchasiga etimologik tavsif berish ortiqchadir. Shuning uchun ulardan namunalarnigina sanab ko'rsatish bilan kifoyalanamiz. *Misollar*:

Aviatsiya, gospital, diviziya, mayor, punkt, pozitsiya kabilar etimologik jihatdan lotin tiliga mansubdir.

Bulardan tashqari **tank, snayper** kabi inglizcha, **rota**-kabi polyakcha so'zlar hamda **konvoy** kabi gollandcha so'zlar ham ishlatilgan.

Shubhasiz, bular rus tili ijtimoiy hayotining boshqa sohalari kabi o'zbek harbiy leksikasiga ham kuchli ta'sir qilganligining isbotidir: **avtomashina, broneboyshchik, komandir, mina, artillerist, general, zemlyanika, minomyot, leytenant** kabi yuzlab, minglab terminlar yuqoridagi xulosamizning aksioma tarzidagi tasdigining isbotidir.

Ayni haqiqatni R.Doniyorov ishida juda to'g'ri ko'rsatib, rus tili o'zbek tili texnikaviy va harbiy terminologiyasi sohasiga kuchli ta'sir qilganligini alohida

ta'kidlaydi.³⁰ Tubandagi gapda ajratib ko'rsatilgan harbiy atamalar olimning bu fikriga ashyoviy dalildir. Chunonchi, ular matn qurshovida ifoda tasvirning boshqa vositalari kabi fikr bayonida aniqlikni ta'minlovchi leksik vasita vazifasini bajargan: *Ishchi, kolxozchi, cho'pon, aravakash* –bugun burgut yigitlar: **avtomatchilar, pulemyotchilar, minomyotchilar**-hammasi nemis bosqinchilarini «ov» qiladigan **snayper merganlar**. (O.FB. 16)

«Quyosh qoraymas» romanida harbiy terminlar nafaqat rus tili va u orqali o'zlashgan so'zlardan iborat, balki asarda o'zbekcha va umumturkiy so'zlar ham qo'llanilgan.

Harbiy sohaga oid terminlarning etimologiyasiga nazar salsak, ularning bir qismi mo'g'ul hamda usmonli turk tilidan o'zlashganligi ma'lum bo'ladi.

Mergan (mo'g'ul)-1.O'qni mo'ljalga bexato uradigan poyloqchi: Ko'p otgan bilan **mergan** bo'lmas, ko'p aytgan bilan chechan bo'lmas (Maqol). 2. O'qchi askar, jangchi merganlar o'n besh daqiqaga arqasini uzmay miltiqqa o't berib turdilar (A.Qodiriy «O'tkan kunlar» O'ZIL. 1, 460)

Botir (fors-tojik<mo'g'ul. bahodir) - 1. Xavf-xatardan, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan; qo'rqmas, dovyurak, jasur: *Botir yigit. Botir partizan*. Ko'z qo'rqoq, qo'l **botir** (maqol). Mergan ovda bilinar, botir yovda (maqol) 2. Jasorat bilan to'lib toshgan: Jangchilarning yengilmas *botir ruhi* dushmanni battarroq quturtirdi. (Oybek «Quyosh qoraymas» O'ZIL 1. 135)

Sharhlardan ma'lum bo'lishicha, **mergan, botir** so'zlari turkiy leksik qatlamga mansub umumiste'mol so'zlardir. Ular ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalarida ta'sirchanlikni ta'minlashda, hatto o'zbek xalq maqollarining biror leksik komponenti sifatida ham qo'llanadi. Shuningdek, mavzu taqozosidagi fikr bayonida badiiy matn qurshovida hissiylik, obrazlilik talabida ifoda tasvir vositasi vazifasida ham qo'llanadigan leksik vositalardan biridir. Bu jihatdan o'zbek harbiy romanlarining birinchisi bo'lmish Oybekning «Quyosh qoraymas» romanida bu

³⁰ Doniyorov R.. Rus tili o'zbek tili texnikaviy terminologiyasini boyituvchi muhim manba. O'ZTA, 1976, 2-son, 17-21-b

soʻzlar harbiy leksikaning soʻz-atamaları vazifasida qoʻllanishi har jihatdan, xususan, milliylikni taʼminlashning bir detali sifatida ishlatilganligi xarakterlidir.

Faktlarning tahlilidan maʼlum boʻlishicha **mergan**, **botir** soʻzlari Oybek nasrida ham, nazmida ham harbiy atama sifatida oʻrinli qoʻllanilgan. Baʼzan ularning birinchisi matn qurshovida ruscha soʻzlarning oʻzbekcha maʼnodoshi oʻrnida toʻgʻri ishlatilgan. *Matnlarni kuzating.*

Tubandagi matnlar qurshovida bu terminlarning semantik funktsiyasi diqqatga sazovordir.

Misollar, Bektemir **merganlik**ning natijasini koʻrmasa ham, sevindi: Loqaql bittang qon boʻlding! (O. «Qq» 38-b)

Oʻrganilayotgan asarda ifoda tasvirning leksik vositasi sifatida ishlatilgan **mergan** soʻzi etimologik jihatdan oʻzbek tiliga moʻgʻul tilidan kirgan boʻlib, hozirgi oʻzbek tilida keng qoʻllanilmoqda. Bu termin tadqiqot obʼyektimizda *oʻqni bexato uradigan jangchi va oʻqchi askar* maʼnolarini ifodalaydi.

Mazkur termin aksariyat hollarda rus tilidagi **snayper** terminiga ekvivalent sifatida ishlatilgan. Ayni holat badiiy matnda milliylikni ifodalashning muhim detallaridan biridir. U **batalonda snayper** deb hisoblanmas edi-yu, lekin otishda yaxshi bir **snayper** kabi mahoratga egaligini oʻzi bilardi (O. «Qarang» 74-b)

Jonginam, Norbibi yuribman omon,

Kiyim-bosh xoʻp qalin, emishim raso.

Qoʻlimda **merganlik** miltigʻi hamon,

Janga oshiqaman oqargach samo. (Oybek. «Jangchi xatidan», 344-b)³¹

Yoʻq har safar bir pastdan keyin, oʻnqir-choʻnqirda sakrab yurganini koʻraman. Ha, **botirlik**ning yana bir qiziq nusxasini koʻrdimki... (O. «Qq» 40-b)

Botirlarning gʻazab toshida ushalgan tank hujumi bitar-bitmas, dushman yana hujumga oʻtdi. (O. «Qq» 50-b)

Qilichday yigitlar, **botir** ogʻalar,

Ey, oʻzbek xalqining jasur avlodi,

³¹ Oybek. Asarlar. Sheʼrlar, 10 tomlik, 1-tom, Toshkent 1968, 344-b

«Salom»deb qoldilar oq soch onalar.

Sizdadir erta-kech boboylar yodi (Oybek «Salom deb qoldilar» she'ri, 329-b)

Ofatli yilda **botir**—

Bo'ldi qiz - qaddi barno.

Yordamini ayamas

Qasoschilarga aslo (O. «Ko'rkam tol» she'ri, 351-b).

Botir –termini etimologik jihatdan mo'g'ul tilidagi «*bahodir*» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tiliga fors-tojik tili orqali o'tgan. Bu termin qo'rqmas, dovyurak, jasur va jasoratli ma'nolarini ifodalaydi.

Xullas, tahlil ob'yektimizda asar yaratilgan davr (1959), unda tasvirlanayotgan voqealar xronologiyasi (Ikkinchi jahon urushi yillari 1941-1945) bilan izohlanuvchi sabablarga ko'ra «Quyosh qoraymas» romanida harbiy leksikaning umumturkiy qatlamiga mansub yuqoridagi kabi atamalar sanoqligina.

Ulardan ba'zilarining etimologiyasini aniqlashda murakkab holatlar ham kuzatiladi. Masalan, **bomba**-portlovchi yoki yondiruvchi snaryad: *vodorod bombasi*, *atom bombasi*. Bu atama biz kuzatgan «Ruscha–internatsional so'zlar izohli lug'at»ida fransuz tilidan rus tiliga (*bombe*): yunon tilidan fransuz tiliga jarangsiz bo'g'iq ovoz ma'nosidagi *bombos* so'zidan o'tgan, degan belgilar bor. (O'sha lug'at. 89-b)

Ikkinchi manbada **bombordimon** yasalish qolipida **bombardimonchi** fransuz tilidan usmonli turk tiliga o'tgan, degan belgi bor: **bombardimon** (turk-usmon<fransuz)-Bomba tashlash, bomba yog'dirish, bomba tashlab kirish: *Bombardimon* qilmoq. Bombardimon-chi. 1. Bombardimon qiluvchi samolyot. 2. So'zlashuv tilida shunday samolyotning uchuvchisi, deb izohlangan. (O'ZIL. 1, 130-b)

Manbalardagi etimologik sharhlar asosida biz bu murakkab etimologik tavsifni quyidagicha izohlash mumkin degan xulosaga keldik: 1. Bomba aslida fransuzcha harbiy atama bo'lishi mumkin.

2. **Bombardimon** fransuz tilidan usmonliturk tiliga o'tgan harbiy atama.

3. **Bombardimonchi** qolipida usmonliturk va o'zbek tiliga mushtarak harbiy atamalardir. Demak, u rus tili orqali emas, balki uzoq tarixan usmonliturk tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan bo'lishi ehtimol.³² *Masalan,* Bahaybat **bombardimonchilar** orasida havoda zulukday bilanglagan kichkina tez samolyotlar ham bor edi (O. «Qq» 16-b)

Ijtimoiy hayotning barcha sohalari leksikasidek, harbiy leksikaga dahldor so'z-terminlar ham mazmun planiga ko'ra nihoyat rang-barangdir. Ulardan eng faol iste'mol atamalarini tahlil qilinayotgan romandan to'plangan misollar analizidan kelib chiqib, matnda qo'llanilgan harbiy terminlarni tubandagicha mavzuviy tasnif qildik:

2-Harbiy atamalarning mavzuviy tasnifi

Ma'lumki, leksemaning mazmun plani deganda o'sha leksema, ya'ni lug'aviy birlik: so'zlar, atamalarning nimanidir nomlashini tushuniladi: **mayor**-atama, harbiy unvonning nomlovchisidir.

Leksik ma'no bilan u bildiradigan voqelik boshqa-boshqa hodisalardir. Leksik ma'noda voqelikdagi narsa, belgi yoki shular orasidagi tushuncha aks etadi.

Shunga ko'ra leksik ma'no deb, odatda tushuncha ta'kidlanadi: **bomba**-portlovchi snaryad kabi. Leksik ma'no bilan tushuncha orasidagi tenglik leksemalarda bo'ladi. Termin so'z ma'nosining aniq ta'riflab, chegaralab, belgilab qo'yilganligi bilan farq qiladi: **batalon, batareya, granat, avtomat, general, leytenant, mina, minomyot** kabilar harbiy sohaning termin leksemalaridir. Bularning nihoyatda rang-barangligini nazarda tutgan xolda, biz ishimizning mazkur paragrafida ularni beshta mavzuviy guruhlariga ajratgan holda tavsif-u tahlil qilamiz. *Masalan:*

Harbiy unvon va amallarni ifodalovchi terminlar: mayor, efreytor, ofitser, kapitan, soldat, leytenant, serjant, polkovnik, kombatchi, komissar, sapyor kabilar harbiy leksikada unvon, amal va kasbni ifodalovchi asosiy atamalardir. *Misollar:*

³² Mergan. Botir, bombardimonchi so'zlarining etimologiyasi haqida qarang. «O'zbek tilining izohli lug'ati». 1-tom. Moskva, «Rus tili» nashriyoti 1981. 130, 135, 460-betlar. (Ishimizda bu lug'at O'ZIL shaklida qisqartiriladi va saxifalari yozib boriladi).

1. General o'zi bilan birga kelgan **mayor** qulog'iga allanima deb shivirladi-da, keyin **kapitan** Steklovga qarab:

-Qani okopga yo'l boshlang'chi- dedi (O. «Qq» 8-b)

Mayor to'pponcha nusxa zajig'alkasini yoqib papirosini asabiy so'ra boshladi-da, yerga qarab do'rilladi: «Obstanovka»... (O. «Qq» 185-b). –Gitler yashinday bir zarba bilan, xuddi daraxtni qulatgandek mamlakatimizni yemirmoqchi, bizni kishanlamoqchi edi,-deb tushuntira boshladi **mayor**. (O. «Qq» 3-b)

2.**Mayor**. lotincha *major* so'zidan olingan bo'lib, bu termin Maks Fasmerning ³³ «Rus tilining etimologik lug'ati»da (II 560-b)Preobrajenskiyning³⁴ «Rus tilining etimologik lug'ati»da (1, 541-b) «Slovar inostrannix slov»ning³⁵ 289 betida ham harbiy unvon ma'nosini ifodalashi ko'rsatilgan.

Shuningdek, o'zbek tilshunoslari Olim Usmonov Hamda Renat Doniyorovlar tomonidan tuzilgan. «Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'at»ida ham mualliflar uni kapitandan yuqori, podpolkovnikdan quyi unvon va shu unvonga ega bo'lgan ofitser deya izohlashgan. Qarang. o'sha lug'at 262-bet.

3. **Efreytor**. stolda turgan «Qadimiy zamon tarixi» darsligini qo'pol, kir barmoqlari bilan varaqladi-da, bir necha varaqni shartta yirtib olib, g'ijimlab shinelning cho'ntagiga suqdi va askarcha shaxdam odim bilan tashqariga chiqib ketdi. (O. «Qq» 133-b)

Nemislar beshta edi-avtomat osgan to'rtta soldat va bir **efreytor**. Novcha, oriq, o'ng yuzida yiltiragan xoli bor, uzunchoq boshli efreytor oldin xonani aylanib, devorlarga ko'z yugurtirib chiqdi-da, keyin ayollarga, cholga sovuq, masxarali nazar tashladi.

Qiyoslang, **efreytor** nemischa cefreiter so'zidan olingan bo'lib, (F. ESRYA II 29-30-B) Armiyada eng quyi harbiy unvonni bildiradi. Yana qarang: (ESRYA I 256) (218)

³³ M.Fasmer. Etimologicheskiy slovar` russkogo yazika. Tom 2. Moskva 1967. Izd. «Progress»

³⁴ Preobrajenskiy A.G. Etimologicheskiy slovar` russkogo yazika, tom I (a-o) Moskva 1959.

³⁵ Slovar` inostrannix slov. Izd. «Ruskiy yazo'k». Moskva 1983.

O'zbekcha lug'atlarda bu atama qisman aniqroq, ya'ni «**Oddiy soldatga** beriladigan *boshlang'ich harbiy unvon* va shu unvonga *ega bo'lgan shaxs*» deb izohlangan. (O'ZIL 1, 251) Ikkinchi tayanch manbada «Efreytor armiyada **a'lochi soldatga** beriladigan eng kichik **komandirlik** unvon», deb izohlangan. (RINSL 162)

Bir unvonga, ya'ni **efreytorga** berilgan izohlarni qiyoslar ekanmiz, izohlarda bir xillik yo'qligi, faqat umumiy mazmun birligini ko'ramiz. *Qiyoslang*. Oddiy soldat-a'lochi soldat, boshlang'ich harbiy unvon-komandirlik unvon kabilarda ma'naviy-uslubiy har xillik mavjud. Fikrimizcha, ayni bir tilning izohli lug'atida bu kabi atamalar izohi-tavsifi bir xil bo'lishi lozimdir.

4. **Sapyor**-Injenerlik qo'shinlarining soldati, ofitseri. *Sapyorlar* injenerlik qo'shinlarining harbiy qismlari va harbiy qo'shinlari tarkibiga kiradigan harbiy-injenerlik ishlari: yo'l, ko'prik, boshpana va shu kabilarni qurish bilan shug'ullanadigan turi.

Mazkur atamaning etimologiyasi ham murakkab: u arab tilidagi *sapeur* so'zidan fransuz tiliga, fransuz tilidan rus tiliga o'tgan: **sapyoro'**, bundan o'zbek tilida **sapyorlar** shaklida o'zlashgan (RINSL 402,) Saksona **sapyor** nemislarning katta avtomatchilar guruhini qirib yo'lni xavfsizlantirgan (O. Fb. 26)

Xullas, o'zbek tili harbiy leksikasi tarkibida ham soldatdan generalgacha unvon, amal-mansabni ifodalovchi rang-barang harbiy atamalar mavjuddir. **General** eng yuqori unvon, amaldir. U darajasiga ko'ra general-leytenant, general-mayor, general-polkovning kabi tasniflanadi.

2.Qurol-aslaha nomlarini ifodalovchi terminlar ham lingvistik tahlil ob'yektimizda ko'plab ishlatilgan. Ulardan **mina**, **patron**, **snaryad**, **granata**, **shompol**, **zenitika**, **zatvor**, **miltik**, **gilza**, **avtomat**, **protivogaz**, **pulemyot** kabilar eng asosiy atamalardir. *Matnlarni kuzating*.

Axir, kecha qarshimda **mina** yorildi. (O. «Qq» 22-b)

Sag'an ne bo'ldi, esingni jiydingba? –dedi yosh qozoq yigit va uni ancha nariga tortdi-da, haligi joyga dushman **mina** tashlashi mumkinligini tushuntirdi. (O. «Qq» 2-b)

Lekin dushman kuch yig'ib yana,

Qo'ldan ketgan marrani qayta,

Olmoq uchun boshladi xujum,

O'q, **minalar** tinmadi bir zum. (Oybek «Yigitning yigiti» 331-b)

Birinchi misoldagi uchta matnda qayd qilingan **mina** atamasi Oybek nasrida ham, nazmida ham ifoda tasvirning davr ruhini haqqoniy ifodalashning leksik vositasi vazifasida qo'llanilgan. U ko'pgina lug'atshunoslik manbalarida rus tiliga fransuz tilidagi *mine* so'zidan rus tili orqali o'zlashtirilgan atamadir. *Qarang.* Mina-1. Yer yoki suv ostiga ko'mib qo'yiladigan portlovchi snaryad: tankaga qarshi **mina**, piyoda askarlarga qarshi **mina** va sh.k Mina –2. Minomyotdan otiladigan snaryad.

3. Ayni *torpeda*. (RINSL 285) Mazkur atama «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham xuddi shunday sharhlangan: **mina** qo'yib chiqmoq (O'ZIL | 465)

Avtomat-1. Texnikada odamning bevosita ishtirokisiz, uning nazorati ostida ichki mexanizm yordami bilan ishlaydigan apparat, mashina yoki asbob-uskuna: Telefon-avtomat, avtomat stanok kabi. Avtomat-2. harbiyda pistalet-pulemyot, qo'l pulemyoti-otish qurollarining bir turi. Mazkur atama etimologik jihatdan o'z-o'zidan *harakatga keladigan* ma'nosida birinchi yunon tilidagi *automatus* so'zidan fransuz tiliga o'tgan, fransuz tildan *automate* so'zidan rus tiliga o'tgan, rus tilidan o'zbek tiliga **avtomat** shaklida o'zlashgan va ayni shaklda tez otar avtomatik qurol ma'nosida keng qo'llaniladigan harbiy atama ma'nosini anglatadi. (*Qarang.* RINSIL. 36 RUSL. 20-21-b)

Ta'kidlash joizki, mavzu taqozosida o'rganilayotgan ob'yektimiz bo'lmish «Quyosh qoraymas» romanida ham, Oybek she'rlarida ham mazkur atama juda ko'plab ishlatilganligi ma'lum bo'ldi. Masalan, u adibning «**Avtomat**» mavzusidagi

to'rt bandan iborat birgina she'rda olti misrada takrorlanib, ifoda tasvirning nihoyatda xissiy, ta'sirchan vositasi vazifasini bajargan.

Qo'lga olsam, ko'ksim kerar **avtomat**,
Yuragimga g'ayrat berar **avtomat**,
Gala-gala yovlar chiqsa qarshimdan,
Qonga belab yerga terar **avtomat**,
...Yovga o'lim balo separ **avtomat**,
...Yuragimday shaxdam qadam tepar **avtomat**,
Men bilan ko'p yerlar kezar **avtomat**. (1942)
(Oybek. Asarlar I tom. 1957, 162-b)

Ognemyot. Bu atama o'zbek tili harbiy leksikasi tarkibiga bevosita rus tilidan kirgan: rus. **Ogon**-o't(olov)met(at)-otish. Demak, o't otish birikmasi anglatgan leksik ma'noda harbiy atamashunoslikda u «Dushmaniga yonib turgan suyuqlik otadigan, ya'ni **o'tsochar**» ma'nosida harbiy qurol ma'nosini ifodalaydi. Mazkur atmaning birinchi qismini tashkil qiluvchi **ogne**... aslida rus tilidagi qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'tga, olovga oidlikni bildiradi: *ognemyot*, *ognetushitel* va. Sh.k (RINSL 313)

Minomyot-ruscha. Minametat. Mina otish qolipidagi yasama bo'lib, mina otadigan qurol ma'nosini bildiradi: *reaktiv minomyot*. **Minomyotchi**-minomyotlar bilan qurollangan harbiy qismlarda yoki bo'linmalarda xizmat qiluvchi soldat yoki ofitser: *minomyot otuvchi* (RINSL. 286)

Xullas, harbiy-qurol asloha nomlarini, ularning zarur qismlarining nomlarini bildiruvchi atamalar anchaginadir. Bu o'rinda ularning barchasini sharhlash ortiqchadir. Ular sirasida yuqorida izohlanganlardan tashqari, **shampol**-miltiq stovolini tozalaydigan metall tayoqcha; **zatvor**-o'q otish qurollarini qulflovchi mexanizm; **patron**-gilzaga joylashgan porox zaryadi: *miltiq patroni*: **gilza**- o'qning dori (porox) solinadigan, bir og'zi berk tsilindr trubka qismi (uning ikkinchi uchiga otiladigan qismi ya'ni o'qning o'zi joylashtiriladi) kabilar ham harbiy qurol-

asloholalar nomini bildiruvchi atamalarga dahldordir. *Masalan*, Frits yoningdan bitta bo'sh **patron** topsa ham ko'kragingga butun **diskni** bo'shatadi. (O. «Qq» 118-b)

3. Harbiy kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi atamalar.

Harbiy leksikada **kaska**, **shinel**, **pilotka**, **obmotka**, **gimnastyorka** kabilar asosiy kiyim-kechak nomlaridir: Bektemir peshonasini siqqan og'ir, **kaskani** sal ko'tarib, ko'zlarini osmonga tikdi (O. «Qq» 12-b) Ali tajang bir tomoni ichiga botgan kaskasini qo'lga oldi-da, boshining gurrasini silab-silab yana uni ko'zigacha bostirib kiydi. (O. «Qq» 23-b)

Kaska termini fransuz tiliga ispan tilidan o'tgan. (fransuz *casque* <ispan. *casco*-, bosh suyagi). U harbiyda mis, po'lat va shu kabilardan yasaladigan harbiy qalpoq, **dubulg'a** ma'nosini ifodalaydi. (RINSL 200) «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham xuddi shunday sharhlangan. harbiy xizmatchilar, o't o'chiruvchilarning bosh kiyimi (O'ZIL. 1, 371): Keyin **kaskasining** yonidan vizillab o'q uchdi. **Shineling** quruq, Zinochka yotsin, -Bektemir qizchani yechintirdi-da, Gluxovning yoniga yotqizdi (O. «Qq» 115-b).

Hozir borar jasur va yengil,

Yovni quvib qanotlangan u.

Yuzida is, o'q teshgan **shinel**,

Otar, yotar, harakati quv... (O. «Jangchi yuragi» she'ri 348-b)

Boshida shapka ustida **shinel**,

Yuzi jiddiy, sog'lom qoramtir.

Mehr bilan quchoqlar ona

Va o'padi, yuzi, ko'zidan. (O. SHe'rlar 321-b)

Misollarimizda askar liboslaridan birining nomi bo'lgan **shinel** so'zi ham o'zbek tilining harbiy leksikasiga rus tili orqali ovrupa tillaridan o'zlashgan harbiy atamalar sirasiga kiradi. U rus tiliga fransuzcha «*Ertalab kiyiladigan kostum*» ma'nosidagi *chenilla* so'zidan bo'lib, harbiy leksikada kiyim «Orqasida burmasi va belbog'chasi bo'lgan maxsus bichimdagi ustki forma kiyimi ma'nosini kasb etgan» (RINSL. 511) ikkinchi bir manbada bu atama yuqoridagi izohdan qisman

boshqacharoq sharhlanadi: **Shinel** (rus) –Maxsus bichimdagi formali palto: *Shinel kiygan soldat*; militsioner shinel (O‘ZIL II. 414-b)

4. Harbiy inshoot, o‘rin-joy nomlarini bildiruvchi terminlariga **lager, zemlyanika, kuzatish punkti, punkt, okop, gospital, shtab, blindaj, lazaret** kabilar kiradi. Nemis **lagerida** yuzlarcha yaradorlar kun bo‘yi qurt terar edik (O. «Qq» 108-b) U **lagerda** bir oz vaqt askarlarga ta‘lim bergandi (O. «Qq» 31-b) Armiya **shtabiga** tushdik. (O, FB. 3-b)

Lager termini etimologik jihatdan nemis tiliga mansub bo‘lib, 1. Harbiy qismlarning aholi yashaydigan joydan tashqaridagi vaqtli qarorgohi. 2. Umuman vaqtli qarorgoh ma‘nosini bildiradi (RINSL 244; O‘ZIL. 1, 425). Yana qarang **lager** (F. ESRYA 1, 445-b)

Kuzatish punktida bo‘lgan mayorning oldiga borguncha o‘zini bir necha marta qorga tappa tashlab, artilleriya otashidan saqlanishiga to‘g‘ri keldi unga (O. «Qq» 185-b).

Botqoqlar ko‘lmaklar ko‘p uchradi. Kechqurin qo‘qqisdan dushmanning o‘rmondagi allaqanday **punkti** yonidan chiqib qolishdi (O. «Qq» 113).

Punkt lotincha *punctum* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, alohida belgisi bilan ajralib turadigan joy.-**nuqta** ma‘nosini bildiradi: *strategik punkt, kuzatish punkti* (O‘ZIL. 1 606). Yo‘l-yo‘lakay bir necha DZOTlarga kirdik. **DZOTlar** juda issiq. **DZOT**- derevo zemlyanaya ognevaya tochka. O‘zb. Yog‘och va tuproqdan qilingan o‘t otish nuqtasi. (O. Fr. 18)

5. Qo‘shin va uning qismlarini ifodalovchi terminlarga **batalon, otdelnie vzvod, rota, artilleriya, diviziya, armiya, batareya** kabilar kiradi.

Misollar: Dushman bexisob **tanklar** himoyasida **batalon** pozitsiyasini bir necha bor yorib o‘tishga urindi, biroq soldatlarimizning matonati va fidokorligi bilan har gal ulotirib tashlandi (O. «Qq» 8-b)

Batalon mudofaa qilib turgan pozitsiya armiya mudofaa linyasining eng muhim uchastkalaridan biri bo‘lgani tufayli batalondan xabar olish uchun diviziya komandiri general-mayor Aleksandr Vasilevich Sokolovning shaxsan o‘zi keldi (O.

«Qq» 8-b) Mitingda **armiya** komondoni gvardiya **diviziyasi** generali Zaxarin soʻzga chiqdi. (O. FB. 45)

Batalon fransuzcha bataillon -bir nechta rotadan iborat boʻlgan harbiy boʻlinmadir. Qiyoslang. I.M.Shanskiyning «Rus tilining etimologik lugʻat»ining «B» harfli kitobining 55-betida³⁶ va ESRYA I, 57-bet ham ayni shunday maʼnoda izohlangan.

Rotadan koʻp kishi halok boʻldi, yarador daxshatli kartinalarni eslashni istamagandek, koʻzlarini dard bilan maʼnodor yumib qoʻydi (O. “Qq” 140-b) U yangi kelgan bir nechta yaradorlar orasida oʻz rotasidan bir jangchini koʻrib qoldi (O. “Qq” 149-b) Bizning rotada bittasi bor edi, yarim professor. (O. “Qq” 3-b)

Rota -bir necha vzwoddan tashkil boʻlgan harbiy boʻlinma. *Qarang.* (F. ESRYA, III, 507-b, ESRYA, II, 217-b, RINSL. 300-b, OʻZIL I 627-b)

Demak, Oybekning tahlil qilinayotgan asarida **batalon, lager, okop, armiya, artilleriya, kaska, shlem, gospital, rota, diviziya** kabi qator terminlarning aynan, yaʼni oʻzbekchaga tarjimasiz ishlatilishi obʼyektiv haqiqatdir.

Shubhasiz, “Quyosh qoraymasda” adib tomonidan harbiy terminlarning asl manbasidagidek ishlatilishida atamashunos olim R.Doniyorov alohida taʼkidlaganidek, harbiy terminlarning xalqaro miqyosida ham ayni shunday qoʻllanishi, ularning askarlar nutqida ham xuddi shunday faol ishlatilishi nazarda tutilgandir.

Zero, harbiy atamalarning barchasiga tilimiz lugʻatidan muqobil leksema izlash, topilganini harbiy atama sifatida qoʻllashga extiyoj, zaruriyat yoʻq. Chunki amaldagi harbiy atamalar: **Rota, avtomat, zatvor, mayor** va sh.k.lar fan va texnika taraqqiyoti natijasida xalqaro terminlar sifatida qoʻllanila boshladi. Bu birinchi obʼyektiv qonuniyat boʻlsa, ikkinchisi, “Oʻzbek tilining Davlat tili haqidagi Qonunida ham oʻzlashtirma terminlar oʻzbekchalashtirilsin, degan jumlani topolmadik”³⁷

³⁶ Shanskiy I.M. Etimologicheskiy slovar russkogo yazika. Tom I. «B» Moskva, 1965, 55-b

³⁷ R.Doniyorov terminlarni oʻzlashtirish mezoni haqida jurnal. «Oʻzbek tili va adabiyoti» 1991, 6-son, 21-26-betlar

3 -Harbiy atamalarning uslubiy qo'llanishi.

Tahlili qilinayotgan asar badiiy jihatdan qancha yuksakligi bilan Oybek mahoratini namoyish qilish, lingvistik jihatdan ham adibning so'z tanlash ibora qo'llash, ularga qo'shimcha vazifa yuklash mahoratini nomoyish qiluvuchi yuksak manbadir. Chnki badiiy asar qahramonlarining barcha hatti-harakatlari yozuvchining niyati asarda ishlatilgan so'zlar orqali reallashadi: **Harom qotdi-o'ldi, qora qanot-dushman samolyoti** kabilar.

Ayni ma'noda tahlil ob'yektimiz leksikasidagi ba'zi frazeologizmlar va maqollar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yetuk san'atkor Oybek "Quyosh qoraymas" romanida o'zbek xalq maqollari, turg'un iboralardan ham mohirona foydalanib, ikkinchi jahon urushi davrida xalqimizning dushmanga bo'lgan g'azab va nafratini ifodalash maqsadida qator iboralar ham ishlatgan.

Biz to'plagan iboralarni mavjud lug'atlarga qiyoslab, 31 frazeologik iboraning 6 maqolning manbalarda yo'qligining, bular faqat Oybek ijodigagina hosligining guvohi bo'ldik. Ehtimol bordir, lekin mavjud frazeologik lug'at va maqollar to'plamida uchramaganligidan hozircha shunday xulosaga keldik. Bu masala yanada o'rganishni talab etadigan qiziq muammolardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi hulosamiz quyidagi statistik jadvaldan aniq ma'lum bo'ladi.

Frazeologik iboralarning jadvali

Umumiy ibora va maqollar	Frazeologik. iboralar	Lug'atda bor fraz. iboralar	Asardagi o'zbek maqollari	«O'XM»da bor maqollar	Lug'atda yo'q iboralar.	«O'XM»da yo'q maqollar
86	71	40	15	9	31	6

Bu o'rinda ayrim iboralarning stilistik xususiyatlarini ko'rsatishga intilamiz. Yozuvchi «**Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi**» iborasi orqali dushman jangchilarining

nihoyatda tushkun ruhiy xolatini obrazli ifodalagan: Bir nechitasi o'rmalab kelayotgan edi. Granata bilan soldim. Ha, ikki-uchi harom qotdi. Orqadagilarning chamamda *tarvuzi qo'lti'gidan tushdi* (O. «Qq» 66-b)

Mazkur misoldagi tarvuzi qo'ltig'idan tushdi iborasi o'zbek tilining fundamental frazeologik lug'atining 222-sahifasida qayd qilingan.³⁸

O'zbek tili lug'at tarkibidagi yovvoyi hayvon ma'nosidagi **tulki** leksemasi orqali fashistlarning makkorligini achchiq kinoya bilan tasvirlagan: Gitler askarlar orasiga ayirmachilik solib, mushtimizni bo'shashtirmoqchi: Siyosatda fashist **eski tulki**. (O. «Qq» 63-b)

Oybek partizanlarning jasoratini obrazli qilib ifodalash maqsadida o'zbek tili lug'ati tarkibidagi «**qushning patini yulmoq**» iborasidan «**qora qushning patini yulardilar**» shaklida foydalangan. Partizanlar bo'sh turmas. qariyb har kuni *qora qushning patini yulardilar*. (O. «Qq» 166-b)

Ibora tarkibidagi **qora** leksemasi dushman samolyoti, tanklari, pulemyoti manolarini anglatayapdi.

Bu kabi leksemalarning yangi uslubiy funktsiyada faqat ayrim adiblar uslubidagina (bu o'rinda Oybekka xosligi ta'kid bizniki) xosligini tilshunoslarmiz alla qachon e'tirof qilgan. Masalan rus tilshunosi M.A. Bakina, «Shoirilar yasagan yangi so'z bir marta qo'llaniladi... Shunga ko'ra, muayyan konkret doirasidagina ularning (shoirilar yaratgan yangi so'z) to'liq ma'nosini anglab olish mumkin.»³⁹

M.A.Bakinaning mazkur fikri tadqiqot ob'yektimizdagi *tulki*, *o'rmalamoq*, *qora*, *uzildi*, *sepmoq* kabi umumiste'moldagi leksemalarning yangi uslubiy funktsiyada ishlatilishini alohida ta'kidlaydi.

Asarda **qora** leksemasi juda ko'p o'rinda takrorlangan: **Qora qanotlar** o'sib, havoni qoplardi. (O. «Qq» 12-b) Bektemir osmonga tikildi: «Uch, to'qqiz, o'n bir, o'n etti, yigirma ikki., yigirma...» sanog'idan yanglishib ketdi. Chuqurga ko'proq tikildi.

³⁸ Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent 1978. Bu lug'at kelgusida O'ZFL shaklidagi qisqartmada ko'rsatiladi.

³⁹ Bakina M.A, Poeticheskoe n ovoobrazovanie, «Russkaya rech'» 1973, №4 78 str

Qora balolarning qanotlari onsari o'sdi, osmonda ma'shum sadolarning to'liqini zo'raya bordi. (O. «Qq» 14-b) Tanklar ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan ufqni yana **qora qushlar galasi** tutdi (O. «Qq» 16-b) Otishma uzoqlashgach, ... o'rmon orqasidan, nogohon dushman samolyoti **qora baloday** vangillab chiqdi (O. «Qq» 123-b)

Qora so'zi ishtirok qilgan yana bir qator misollarni ko'rsatish mumkin edi. Shu to'rtala kontekstda **qora** so'zining metaforik usulda ko'chma ma'noda ishlatilishining o'ziyoq Oybekning tilimiz lug'atidagi bu kabi so'zlarga qo'shimcha semantik funktsiya yuklashdagi mahoratini ko'rsatib turibdi.

O'zbek tilli lug'at tarkibidagi «sepmoq» leksemasi yordamida ham ibora ijod qilgan. Bunda to'plarning granatalarning otilishini, mina va snaryadlarning otilishini obrazli qilib tasvirlagan:

O'lim sepib, atrofda snaryadlar yorildi (O. «Qq» 13-b) Shu misolga o'xshash «**yer tishlamoq**» iborasi ham «**o'ldirmoq**» «**jon bermoq**» ma'nolarini ifodalab kelgan: Bir o'q bilan yonimda **yer tishladi** boyaqish. Taqdir degin! (O. «Qq» 21-b) Qiyoslang. Yer tishlamoq, kim-yer tishlamoq, kim kimni o'ldirmoq ma'nosida (O'ZIL 84-b)

Shaytonni avliyo, ilonni beozor, bo'rini qo'yga do'st deb bilsangiz u vaqt fashistdan marhamat kutasiz (O. «Qq» 62-b)

Bu gapda *shaytonning avliyo bo'lmasligini, bo'rining hech qachon qo'yga do'st bo'lmasligini ta'kidlab*, yozuvchi jangchilardan ham shuni talab qiladi, ya'ni dushmandan hech qachon shafqat kutib bo'lmaydi, dushman baribir dushmanligini qiladi deydi.

Oybek asarida «**bo'rining tishini ushatmoq**» birikmasini ko'chma m'noda qo'llab, *ostonada bo'rilarining tishini ushatamiz* birikmasini ijod qilgan. Mazkur birikma bo'rining yirtqichligi –dushman soldatining yovuzligiga o'xshatilgan: Sharaflari tariximizni unutmang: ...Rossiyaning hududsiz qorli dalalari, cheksiz o'rmonlari fransuz askarlariga mo'zar bo'lgan. Mayli Gitler ham shaykasi bilan

Moskvaga qadar oʻrmasin, **ostonada boʻrilarning tishini ushatamiz**. (O. «Qq» 88-b)

Xullas, tahlil qilinayotgan romanda yuqorida soʻz qilingan iboralar bilan bir qatorda, yangidan-yangi lugʻaviy mazmunda qator frazeologik iboralar ham qoʻllaganki, ular fikr bayonida «Quyosh qoraymas» romani mavzusi, davr, voqealariga mos badiiy matnning nihoyatda taʼsirchan va obrazli tasvir vositasi vazifasida sanʼatkorona qoʻllanilgan. *Masalan:* 1. Tuproqqa qorishgan kallalar, uzilgan qoʻllar, yerda choʻzilgan olachipor ichaklarni koʻrarkan, uning **koʻzlari qinidan chiqayozdi**. (O. «Qq» 20-b) 2. Frontda **yuraklar qon boʻlib ketdi**, kecha-kunduz qulogʻimizda gumbir... (OʻZFL. 145-277-b)

Birinchi misoldagi frazema kishining nimadandir *gʻazabi koʻzida aks etgani, ortiq darajada gʻazablangani* maʼnosini ifodalash uchun, ikkinchi misoldagi frazema *diltang boʻlmoq, ziq boʻlmoq, ruhan nihoyatda azoblanmoq* maʼnolarini ifodalash uchun adib tomonidan matnga kiritilgan. Ular yangi kontekstda muvaffaqiyatli chiqqan. Biz bu oʻrinda tahlil qilinayotgan badiiy matndan toʻplangan baʼzi frazemalarning matn qurshovidagi uslubiy qoʻllanishiga bir necha namunalar keltirish bilan kifoyalanamiz. Imkon qadar ular aniqlik, taʼkidlash kabi maqsadlarda Sh.Rahmatullaev tomonidan tuzilgan «Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati»ga qiyosan tavsiflanadi.

1.Fashistni ur, **abjagʻini chiqar**, u yogʻi bilan ishing boʻlmasin. (O. «Qq» 7-b) *Abjagʻini chiqarmoq, abjaʻgi chiqdi* shaklidagi birikmaga va gapga teng iboralari ikki maʼnoda: sifati yoʻqolib, yaroqsiz xolga kelmoq; qattiq jarohatlanmoq maʼnosida ishlatilishi maʼlum. (OʻZFL 22) Lekin ular Oybekda asosan, fashistni tamomila tugatmoq, yanchib tashlamoq, oʻldirmoq kabi yangi maʼnolarda qoʻllanilgan.

2. Bektemirdan koʻnglim toʻq,-dedi Ali tajang, -kallasi ishlaydi. Ammo Safar choʻtir –u ham qoʻrqoq, ham **ammamning buzogʻi** (O. «Qq» 21-b)

Ayni kontekst frazeologik lugʻatga ham kiritilib, **landavur, lapashang** deya sharhlanadi. Demak, bu oʻrinda Oybek Bektemirga nisbatan Safar choʻtirning

tabiatiga mos bo'lgan **yalqovlikni** xuddi rassomlardek mo'yqalam bilan chizib ko'rsatgan (O'ZFL 26)

3. Bektemirning **boshidan** gala-gala fikrlar, rang-barang xotiralar **kechardi** (O. «Qq» 5-b) «Qaytib ko'ramanmi- yo'qmi?»degan fikr **boshidan** o'tdi-da, allaqanday mubham va og'rituvchi sezgining turtkisi bilan og'ir xo'rsinib qo'ydi.

O'z hayotida ko'rmoq, his qilmoq; Ma'lum bir muddat fikrlamoq ma'nolarida qo'llanilgan (O'ZFL. 47-48-b)

4. Keksa militsioner hujjatlarni chiroqqa tutib qayta-qayta ko'zdan **o'tkazdi-da**, bo'shanqirab yo'ldoshiga berdi(O. «Qq» 27-b) Mazkur frazema matn qurshovida biror hujjatni qarab chiqmoq, birma-bir ko'rmoq, sinchiklab tanishmoq ma'nolarini anglatishi ma'lum. (O'ZFL 133) Lekin Oybek romanida bu frazema tasvirlanayotgan voqealar fikr bayoni taqozosida **sinchiklab tanishmoq** ma'nosida o'rinli ishlatilgan va muvaffaqiyatli chiqqan.

5. Tuproqqa qorishgan kallalar, uzilgan qo'llar, yerda cho'zilgan olachipor ichaklarni ko'rarkan, uning **ko'zlari qinidan chiqayozdi**. (O. «Qq» 20-b. qarang: O'ZFL. 145-b)

6. Bektemir «kavob»ni ko'p pishirdi, **ko'ngli ayniguncha** yedi. Keyin gulxanni avjlantirib kiyimlarini quritdi (O. «Qq» 103-b) Bu o'rinda frazema tarkibidagi *kabob* so'zi, ko'ngli *ayniguncha yemoq* birikmasi ishtirokidagi birikma aslida frazemadan kutilayotgan nimaningdir *ko'nglini aynitishi*, *ko'ngliga yoqmasligi* ma'nolarida emas, balki dushmanni ko'plab qirdi, o'ldirdi ma'nolarida qo'llanilgan. Fikrimizcha, adib umumtil frazeologiyasidan ular tarkibidagi ayrim komponentlarni o'zgartirish usulida yangi frazemalar qo'llash usuli natijasidir. (kabob pishirmoq, yemoq komponentlarining ibora tarkibidagi funktsiyasini eslang:)

7. ...Har narsadan hadiksiraganday tevarakka jonsarak va ojiz qaragan yangi jangchilar orasida o'zini **pixini yorgan** xo'rozday sezar va ularga dalda berib, ... (O. «Qq» 74-b O'ZFL. 207-b) Mazkur frazema o'ta ketgan uddaburon va quv ma'nosida ishlatilgan (O'ZFL 207-b)

8. Dovdirama! **Xamirning uchidan patir...**-dedi Bektemir qat'iy yo'sinda (O. «Qq» 70-b) kabi juda ko'plab harbiy harakat va holatni ifodalovchi turg'in birikmalar aktiv ishlatilgan: O'z vaziyati haqida (so'zlash uchun) og'iz ochganida telefon ishdan chiqdi (O. «Qq» 82-b)

Oybek o'zining «Quyosh qoraymas» romanida turg'un birikmalar, frazeologik iboralar ishlatish bilan birga xalq mat'al va maqollaridan ham unumli foydalangan. Bularning tipik namunalari sifatida quyidagilar xarakterlidir.

1. **Xat yarim diydordir...** (O. «Qq» 70-b) Mazkur misoldagi «Xat-yarim diydor» maqoli «O'zbek xalq maqollari» to'plamining 69-betida berilgan.

2. **To'qayga o't ketsa, ho'l-u quruq baravar...** (O. «Qq» 21-b O'XM. 96-b)

3. **Qimirlagan qir oshar, yurgan oyoqqa yo'l nima?** (O. «Qq» 123-b O'XM 96-b)

4. **Yigit so'zidan, arslon izidan qaytmas-** bobolarimizning bu hikmatli gapiga ishonamiz (O. «Qq» 191-b) *Arslon izidan qaytmas, yigit- so'zdan* (O'XM 81-b)

Yana shuni ham qayd etish kerakki, romanda ishlatilgan maqollar soni 15 ta, shulardan 9 tasi «O'zbek xalq maqollari»da ishlatilgan, qolgan 6 tasini esa yozuvchining o'zi ijod qilgan.

Oybek o'zining «Quyosh qoraymas» romanining o'zidayoq qator yangi maqollar va aforizmlarni ishlatadi.

Bu maqollar va aforizmlar uslubon romandagi voqealarning borishi, qahramonlarning xatti-harakatlari, obrazlari, ichki va tashqi qiyofalarini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Bunga namuna sifatida quyidagilar xarakterlidir. Biz ularni mufassal sharhlashni ortiqcha deb hisobladik. Shuning uchun namunalarning o'zinigina keltirish bilan kifoyalanamiz. Chunki bunday paremalarning, shuningdek, frazemalarning ham mazmun plani hammaga ma'lum.

1. Mardlik bilan jang qilsang, **mardga o'lim yo'q** (O. «Qq» 7-b).

2. **Kerakli toshning og'irligi yo'q** (O. «Qq» 105-b).

3. **Qiriq yil qirgin bo'lsa ham ajali etgan o'ladi.** (O. «Qq» 6-b).

4. **Tilakli yigit-qanotli yigit,** - dedi Asqar polvon salmoqlanib (O. «Qq» 7-b).

5. *O'qsiz soldat - qilichsiz qin* (O. «Qq» 38-b). Kabi yangi maqollar xalq orasida keng tarqalishi natijasida, yangi variantlar yaratishga sabab bo'lmoqda.

Asarda ishlatilgan ayrim turgun birikmalarni qiyos qilganimizda, ularning ham frazeologik lug'atda, ham «O'zbek xalq maqollari»da berilganligining guvohi bo'ldik. *Misollar:*

1. *Yetti o'lchab bir kes*. Men sharoitni yaxshi o'rgandim. Qurolni ham yaxshi bilaman –o'z farzandim u... (O. «Qq» 184-b yana qarang: O'ZFL 86-b O'XM 160-b). Hozirgi paytda *yetti o'lchab bir kesish* kerak, -javob berdi Bektemir horgin va nohush (O. «Qq» 95-b yana qarang: O'ZFL 86-b O'XM 160-b)

2. O'gri *chuchvarani xom sanaydi* (O. «Qq» 67-b yana qarang: O'ZFL 251-b O'XM 163-b). Gitler yana shu quyoshni qora bulutdan o'ramoqchi. Yo'q *chuchvarani xom sanaydi*, xom kalla! (O. «Qq» 67-b yana qarang: O'ZFL 251-b O'XM 163-b).

Bularni amalda frazeologik lug'atga qiyos qilish natijasida shunday xulosaga keldik:

«Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan 86-iboradan 40 tasi lug'atda bor. 31 tasi esa san'atkor tomonidan ijod qilingan. Qolgan 15 tasi esa maqol va mataldan iborat. Demak, Oybek davr tilini berishda badiiy asar tilining muhim detallaridan biri bo'lgan frazeologik iboralar ham ijodkoridir.

Tadqiqot ob'yektimizdan to'plangan faktlarning leksik-semantik va uslubiy qo'llanishiga bag'ishlangan ishning birinchi bobi yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelindi.

1. Tavsiflangan harbiy atamalarning aksariyati etimologik jihatdan fransuz tilidan rus tili orqali o'zlashgan: *armiya, komanda, parashut, serjant* va sh.k. Yana bir qismi: **shtab, ofitser, soldat, granata** va sh.k.lar nemis tilidan: rus tili orqali o'zlashgan qatlamga mansubdir.

Ular semantik jihatdan harbiy leksikada *harbiy unvon: Mayor; qurol-aslaha: snaryad; kiyim-kechak; shinel, kaska; harbiy inshoot; blindaj, okop, shtab;*

qo'shin va uning qismlari; **vzvod, rota batalon** kabilarning nomlarini bildiruvchi atamalardir.

2. Tahlil qilinayotgan matnda bir qator so'zlar, iboralar uslubon badiiy matnning hissiy ta'sirchanligini ta'minlovchi frazemalar, paremlar ham ishlatilgani ma'lum bo'ldi; Bir o'q bilan yonimda **yer tishladi** boyaqish. **Qora baloday vanigillab** chiqdi, **qimirlagan qir oshar** va shu kabilar.

Bular Oybekning umumxalq frazemalari va paremlaridan ham badiiy matnning ta'sirchan ifoda-tasvir vositasi sifatida samarali foydalanilganligining isbotidir.

II BOB.

«QUYOSH QORAYMAS» ROMANIDA ISHLATILGAN HARBIY TERMINLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Tadqiqot ob'yektimizdan to'plangan **zenitchi**, zenit artilleriyada xizmat qiluvchi askar, zenit to'pidan qurolidan otuvchi askar: **minalash**: biror joyga yoki ob'yektga mina ko'mish (qo'yish) rus. Minirovat; **minachi**-1.minalovchi yoki

joylarni minalardan tozalovchi mutaxassis. 2. Harbiy kemalarning mina otuvchi qurolini boshqaruvchi matros ofitser; **bombapana**-bombadan, artileriya snaryadlaridan saqalandigan maxsus joy; tikanli **sim to'siq** (rus. bombaubejishe, pravolochnoe zagrajdenie) kabi atamalarning grammatik (morfologik) tarkibi jihatidan tahlili harbiy atamalarning ham bir qismi yasama bo'lib, ular tilda mavjud qator so'z hosil qilish usullari mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Demak, mazkur holat hozirgi zamon o'zbek tilida so'z hosil qilish usullarining affiksatsiya, fonetik usul, semantik usul, kompazitsiya usuli, abbrevatsiya usuli kabi besh turidan, asosan, 1-,2-,3-usullari asosida ko'plab harbiy terminlar yasalishi mumkinligini isbotlaydi.

Asosiy tadqiqot ob'yektimiz hisoblangan «Quyosh qoraymas» romanida, shuningdek, Oybekning ayrim she'rlarida ishlatilgan **to'pchi, jangchi, pulemyotchi, tankachi, tankist, artillerist** kabi qator harbiy terminlar o'zbek tilidagi boshqa so'zlar kabi so'z yasash qonuniyatining eng mahsuldor usullaridan bir hisoblangan affiksatsiya usulida, **tankotar, yerto'la, tankyoqar, bronteshar** kabilar esa kompozitsiya usulida yasalganligi aksioma xarakteridagi lingvistik haqiqatdir. Hatto bu holatda ruscha shaxs, kasb-kor otlarini yasovchi –nik,-chik, -ist yasovchi morfemalarni ham o'zbekcha ayni ma'nodagi shaxs oti yasovchi –chi morfemasi bilan vazifadosh ishlatilganligini ham uchratamiz: tankist-tankchi. Zenitchik-zenitchi va sh.k.lar talaygina. Ularning ishning affiksatsiya usulida atama yasalishi qismida sharhlashga intilamiz.

1. Harbiy atamalarning affiksatsiya usulida yasalishidan

Ma'lumki, yasash asosiga affikslar qo'shib yangi so'z hosil qilish affiksatsiya usulida so'z yasashdir. Bu usulda harbiy atamalar yasashda –ist, -chi, -la(-lash), -lik kabi affikslar qatnashadi. Ko'rinadiki, qo'shimchalar qo'shish bilan atamalar yasashda qatnashadigan affikslar, umuman so'z yasashda qatnashadigan qo'shimchalar kabi rang-barang emas ular sanoqligina, xolos. Shularga ba'zi *namunalar:*

-chi affiksi prof. A.G‘ulomovning ta’kidlashicha, o‘zbek tili taraqqiyotining barcha davrlari kabi XX asr boshlarida ham eng mahsuldor bo‘lgan.⁴⁰

Bu affiks ishtirokida «Quyosh qoraymas» romanida asosan harbiy sohaga oid kasb-hunarni ifodalovchi qator terminlar yasalgan: *avtomatchi*, *to‘pchi*, *tankchi*, *razvedkachi*, *pulemyotchi*, *parashutchi*, *snaryad yetkazuvchi* keyingisida kompazitsiya affiksatsiya modeli mavjud. *Matnni kuzating*. Bektemir tanklar panasida yugurgilab kelayotgan dushman *avtomatchilarini* ko‘rdi. (O. «Qq» 15-b) Keyin *razvedkachilar* gruppasini chaqirdi... (O. «Qq» 154-b). Uzoqda mashhur *pulemyotchi* Abdullayev uning orqasidan Asqar polvon pulemyotini sudrab borardi (O. «Qq» 55-b). Naryoqda moxorkani buruqtirib dam olayotgan –o‘t, suv kechgan ikki rus jangchi-*snaryad yetkazuvchi* va *o‘qlovchi* –gap orasida, komandir to‘grisida bo‘lsa kerak qistirib o‘tishdi (O. «Qq» 187-b)

Misollardan ayonkim bu atamalar harbiy qurol-aslaha nomlarini bildiruvchi so‘zldardan –chi qo‘shimchasi orqali yasalgan shaxsning kasb korini, uning nima bilan shug‘illanishini (*snaryad yetkazuvchi*) ifodalovchi shaxs otlaridir. Keyingisi esa –la qo‘shimchasi orqali yasalgan buyruq fe‘li yasovchi: **O‘qlovchi** qolipida yasalgan shaxs otidir.

Ta’kidlash joizki o‘zbek tilida –chi affiksi eng faol ot yasovchi bo‘lganidek, harbiy atamalar yasashda ham eng serunum qo‘shimchadir: *Minomyotchi*, *ognemyotchi*, *pulemyotchi*, *zenitchi*, *desantchi*, *aloqachi*, (*radist*, *svyazist*), *bombardimonchi* va shu kabilar, hatto uzun stolli artilleriya quroli fors-tojik **zambarak** so‘zining o‘zbekcha muqobili (umumturkiy) to‘p so‘ziga -amchi qolipida shaxs ot yasalgan: Bu yerda yaxshi o‘zbek **to‘pchilaridan** Hamdamov degan yigit haqida gapirdilar. (O. FB. 24) **Zambarak pushka** (O‘ZRSL. 159)

Internatsional so‘z terminlarning yasalişhida aktiv aktiv qo‘shimchalardan biri bo‘lgan –IST qo‘shimchasi orqali ham «Quyosh qoraymas» romanida ko‘plab harbiy terminlar yasalgan. Chunki E.S.Kubryakova ko‘rsatganidek, har qaysi jonli

⁴⁰ A.G‘ulomov. O‘zbek tilida so‘z yasalişhi. O‘zbek tili grammatikasi 1, t. morfologiya. «Fan», Toshkent 1975, 7-32-b

tilda uning yangi soʻzlar birlan boyish jarayoni hech qachon toʻxtamaydi, ularning bir qismi soʻz yasash yoʻli bilan yuzaga keladi. Masalan, *artillerist*, *tankist*, *kavalerist* kabilar.

Bektemir dushman mudofasiga yaqin joydan oʻrmlab kelgan bir **tankist**ning betiga qarashga botina olmadi (O. «Qq» 49-b). Ulardan yolgʻiz birgina **tankist** tirik qolgan edi. (O. «Qq» 48-b) Tunov kun jar yoqasida boʻlgan jang tingach, **artillerist**larga borishga toʻgʻri keldi. (O. «Qq» 174-b).

Bu misoldagi **artilleriya** termini fransuzcha *artillerie* soʻzidan olingan boʻlib, uzoqdan turib otadigan quroldir. *Qiyoslang*. (ESRYA I 46-b, SIS, 53-b RINSL, 45-b, OʻZIL, 55-b)

Mazkur termin **-ist** qoʻshimchasini olganda esa, shu qurollarni otuvchi, shugʻallanuvchi maʼnosini ifodalaydi. **Kavalerist** boʻlmaganidan, otda qovushmaganday koʻrinardi (O. «Qq» 152-b) *kavaleria* italiancha *cavaleria* soʻzidan boʻlib, (F. ESRYA II 153-b) otliq qoʻshin maʼnosini ifodalaydi. *Yana qarang*: (RINSL 143-b, OʻZIL 357-b). Bunga **-ist** affiksini qoʻshish orqali otliq qoʻshin safida xizmat qiluvchi shaxs nomini anglatuvchi termin yasalgan.

Maʼlum boʻldiki, asarda *tank*, *artilleriya*, *kavaleriya* soʻzlariga **-ist** affiksini qoʻshish natijasida shaxs oti yasalgan. Bu affiks qoʻyilishi orqali oʻzbek tilida shaxs oti yasalishi akademnashr grammatikalar va oliy maktablar uchun nashr qilingan qator darsliklarda ham qayd qilingan.

Bu oʻrinda shuni alohida taʼkidlash lozimki, «Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan inglizcha *tank* (SIS 486-b, RINSL, 334-b) **-tank** fransuzcha *artillerie* (ESRYA, I, 46-b RINSL, 46-b) **-artilleriya** italyanacha *cavalleria* (F. ESRYA II, 152-b, ESRYA, 317-b) **-kavaleriya** kabi terminlar rus tilida ham, oʻzbek tilida ham ularning oʻz soʻzlari kabi izohsiz tushuniladi va aktiv qoʻllaniladi. Shuning uchun har ikki tilda ham bu atamalardan shaxs oti yasalishida **-ist** qoʻshimchasi qoʻshiladi.

-**boz** affiksi o‘zak yoki negizdan anglashilgan predmet bilan shug‘ullanuvchi yoki shu predmetni yasovchi, sevuvchi, o‘ynovchi shaxs nomini yasaydi.⁴¹ Masalan, *nayzabozlik*, *pichoqbozlik*, *minabozlik*, *qilichbozlik*, *to‘pbozlik* kabilar keltirilgan 5 ta yasamani yasash asoslarida va yasovchi morfemalarga ko‘ra tahlil qilar ekanmiz, quyidagicha murakkab yasaliishini ko‘ramiz.

Minabozlik: **Minabozlik**. Asos fransuz tilidan rus tiliga, undan o‘zbek harbiy leksikasiga o‘zlashgan atama. Yasovchi affikslar esa fors-tojik va o‘zbekchadir. Demak, yasaliish qolipi **rus ors-tojik o‘zbek**.

Nayzabozlik: **Nayzabozlik**. Asos va birinchi qo‘shimcha fors-tojik *nayzaboz*, ikkinchi yasovchi morfologiya esa o‘zbekchadir. U ko‘plab kasb, soha atamalarini yasaydi. Demak, buning yasaliish qolipi fors-tojik o‘zbekchadir: *nayzabozlik*. **To‘p** (fors-tojik) uzun stvolli artilleriya quroli, ayni zambarak. Bu ham fors-tojik fors-tojik: **to‘pboz** o‘zbekchadir: **to‘pbozlik**.

Pichoq, qilich-o‘zbekcha. Ular umumturkiy leksik qatlamga mansub bo‘lib, sovuq qurol nomlaridir. Harbiy sohada ayni ma’noda bo‘lib, keltirilgan misollardagi yasaliish qolipi **o‘zbekcha fors-tojik o‘zbek** qolipidadir.

Xullas, bu kabi atamalar o‘zlashgan so‘zlar (asoslar)ga o‘zbekcha yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish bilan yasalgan. Nihoyat, harbiy sohada matn qurshovida ifoda tasvirning leksik vositasi vazifasini bajarishga xizmat qilganligi, tabiiy.

To‘liq olingan matnni kuzating.

«-Bu qanaqa jang, tushunib bo‘lmaydi, - dedi Asqar polvon kallasini quyi solib. – Yalang **minabozlik, to‘pbozlik**. Yana osmonda ham portlab turadi. Jang ro‘y - rost bo‘lsa!

- Ha sen Gitler bilan kurash tushgani kelganmisan? - kuldi Bektemir.

- Yo‘q masalan, **qilichbozlik, pichoqbozlik** ham jang. Hozir odam bamisoli chumoliday bo‘lib qoldi - ku.

⁴¹ U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti, 1992, 208-b. Kelgusida bu manba THO‘ZAD shaklida qisqartilib ko‘rsatiladi.

-To'g'ri shu **temir jahannam**da ish ko'rsatgan azamatlar ham bor, buning hikmati nima?

Asqar polvon hali javob berganicha yo'q edi, og'ir bulutli havoni *artilleriya* dahshatli gumburlatib yubordi» (O'zbek adabiyoti ocherklari II 1962, 343-344-b)

Matnda ajratib ko'rsatilgan lug'aviy birliklar uslubiy jihatdan mo'yqalam sohibiga obraz yaratish uchun ranglar qanday xizmat qilsa, Oybek uchun ular urush daxshatlari manzarasini aniq tasvirlashda, shubhasiz, shunday xizmat qilgan:

Bektemir qisqa *nayzabozlikda* bir fashistni qanday o'ldirganini aytdi. (O. «Qq» 39-b)

Demak, «Quyosh qoraymas»da – **chi**, - **lik** kabi o'zbekcha yasovchilar, **-ist**, - **boz** kabi o'zlashma qo'shimchalar, hamda o'zbekcha o'zlashma **-bozlik** kabi qo'shimchalari affiksatsiya usulida shaxs oti kasb-hunar oti yasashda ishtirok qilgan mahsuldor affikslar hisoblanadi.

Ikkinchidan, fe'l turkumiga mansub sanoqli so'zlardangina **-lik**, **-la**, **-ki** qo'shimchalari bilan yangi harbiy atamalar yasaladi: **minalash**, **minalovchi**, **tanki**, **merganlik** kabilar:

...Qo'limda *merganlik* miltig'i hamon,

Ovga oshiqaman oqargach samo.

...Men bosdim *tankini*, fashist qoraqon.

(O. Asarlar. 1957, 158-b. «Jangchi xatidan» she'ridan)

To'plangan materiallarning morfologik jihatdan tahlili affiksatsiya usuliga qaraganda harbiy leksikada atamalar yasalishida kompozitsiya usulining juda mahsuldor so'z yasalish usuli ekanligining isbotidir.

Bu usulda yasalgan harbiy terminlar qismlarining biror turkumga mansubligi, birikishi nihoyatda rang-barangdir. (Ular o'z o'rnida sharhlanadi). *Masalan*, **bombapana**, **protivogaz**, **cho'yan qalpoq**, **lashkar boshi** (komandir), **tankotar** (protvotankoviy pulemyot), **kuzatish punkti** (nablyudatelniy punkt) kabilar ikkita asosning o'zaro birikishidan tuzilgan qo'shma otlardir. Ishning navbatdagi paragrafi ayni shunday harbiy atamalarning ayasalishiga bag'ishlanadi.

2. Harbiy atamalarning kompozitsiya usulida yasalishi.

Kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash kompozitorlar - qoʻshma soʻzlar yaratish usuli boʻlib, bunda ikki (yo undan ortiq) soʻzning qoʻshilishidan yangi leksik birlik hosil qilinadi. Bu usulda hosil qilingan leksik birliklar Prof. A.Gʻulomovning taʼkidlashicha, kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash, qoʻshma soʻzlar boʻlib, bunda ikki yoki undan ortiq soʻzning qoʻshilishi yangi leksik birlik leksema hosil qiladi.

Bu usulda qoʻshma soʻzlar hosil boʻlishi boshqa bir qator tilshunoslar tomonidan ham tan olingan.

Biz oʻrgangan obʼyektda **tankotar, tankyoqar, protivogaz** kabi qator harbiy terminlar qoʻshma soʻz hosil boʻlishining turli tiplari asosida yaratilgandir: **ertoʻla, bronteshar oʻq** kabilar ruscha **zemlyanika, broneboynaya pulya** kabi terminlarning kalkalanishidan hosil boʻlgandir. Chunki harbiy leksikada qator ruscha terminlar, aniqrogʻi, qoʻshma soʻzlar tarkibiy qismi boʻlgan brone elementi «*bronevoy*» va «*bronirovanoʻy*» maʼnolarini yaʼni bron (zerh)ga aloqodorigini, bronlanganlikni bildiradi: bronetank, broneavtomat, bronenos kabilar (RINSL 92) Shubhasiz, keltirilgan misollardagi oʻzbekcha bronteshar oʻq, tankotar kabilar zerhga aloqodorlikni ifodalovchi komponentning qolipida: bronhteshar, bronhtankovoy (tankka qarshi tankotar) birikuvidan tuzilganligi aniqdir. *Masalan:* General yertoʻlada bir guruh ofitserlar bilan suhbatda. Hammasi quyuq popiros tutuniga chulgʻangan. (O. «Qq» 86-b) – Rosa maza qildim – besh soat uxlabman-a! –dedi u maqtanib.

-Yana qaerda deng, qizlarning zemlyanikasida! (O. «Qq» 198)

Bu oʻrinda Oybek rus tilidagi sodda soʻzga oʻzbek tilidan muqobil soʻz tanlagan, nihoyat, u muallif nutqidan berilgan parchada juda muvoffaqiyatli chiqqan. Chunki yertoʻla binokorlikka oid atama boʻlib, romanda aynan harbiy inshootlarning vaqtincha yashash uchun moʻljalangan bir turiga ishora qilingan. Qarang. Yertoʻla 1. Bino ostidagi xona: podval. 2. Yerdan oʻyib qurilgan turar joy.

Ruscha. Zemlyanika. (O‘ZIL 249) Oybek matnda mazkur so‘zni uning ikkinchi ma‘nosida qo‘llagan.

O‘rganilayotgan matnda rus. zemlyanika-o‘zbek. yerto‘la qolipida muqobil leksema bilan berilishiga ya‘ni rus tilida sodda so‘zni o‘zbekcha qo‘shma so‘z bilan berilishi quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: kaska, shlyom, -cho‘yan qalpoq. Masalan, keyin bir qadar jasurlanib, xuddi ba‘zan suvdan «sho‘p» etib bosh chiqarib yana g‘oyib bo‘lgandek boshini bir-ikki marta ko‘tarib qo‘ygan edi – kaskasining yonidan vizillab o‘q uchdi. (O. «Qq» 10-b)

Qo‘shma so‘zning komponentlari o‘z turg‘un tartibiga ega. Masalan, otlarda ular, aniqlovchi aniqlanmish tartibida bo‘ladi: qizil askar. Misollar:

Nikolin ovqatni keskin nariga itarib o‘rnidan turdi, qayishini to‘g‘irladi-da, qizil askar formasidagi o‘rta yashar, ko‘zlari ko‘k, miyig‘i, ot jag‘ odamga xo‘mrayib tikildi (O. «Qq» 56-b)

Lekin o‘sha tankyoqar, panfilovchildarga o‘xshasang, u vaqda germanni biz eltib tiqamiz Berlin ko‘chasiga! –dedi Dubov ta‘kidlovchi ovoz bilan (O. «Qq» 195-b)

Lashkarboshi usta bo‘lsa, dushman oyog‘i osmonda bo‘ladi, -degan eski gap bor. (O. «Qq» 157-b)

Tavsiflangan qo‘shma so‘z shaklida kompozitsiya usulida yasalgan harbiy atamalar sirasida so‘z hosil qilishning obbreviatura usulida yasalgan, shuningdek, kalkalash natijasida hosil bo‘lgan harbiy atamalar ham o‘rganilgan matnda ko‘plab ishlatilgan.

3. Harbiy leksikada abbrevatura va kalkalash usuli

Lingvistik manbalarda obbrevatura turli shaklda tuzilgan ayni qisqartma so‘z deb sharhlanadi. (A. Hojiev lingvistik terminlarning izohli lug‘ati 1985, 11-b)

Abbrevatsiya usuli turg‘un birikma qismlarini qisqartirish orqali ot yasashdir. Bu usulda asosan qisqartma otlar hosil qilinadi. Ular harbiy leksema sohasida ikki undan ortiq komponentlarning birikuvidan hosil bo‘lgan atamalarni ixchamlashtirib ifodalashga xizmat qiladi: Sanbat, kombat kabilar. Bu yasalmaning birinchisidagi

san soʻzi ruscha qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismi boʻlib, «sanitarnoiy» maʼnosini yaʼni sanitariyaga oidligini bildiruvchi; batalon esa turli qoʻshinlarda askariy boʻlinma nomini ifodalaydi. Demak, sanitarnoiy batalon shaklidagi ikki komponentning abbrevatura natijasida paydo boʻlgan ixcham ifodalash vositasi **sanbat** qisqartmasidir. **Kombat** abbrevaturasi ham xuddi shunday.

Kalkalash oʻzga tilning lugʻaviy birliklaridan foydalanib. Oʻz tiliga oid maʼnoni ifodlashdir. Bunda oʻzga tildagi soʻz yoki soʻz birliklarining ifodalagan funktsiyasi ona tilimizda shu maʼnoni ifodalovchi lugʻaviy birliklarga yuklanadi. (A.Hojiev koʻrsatilgan lugʻat 41-74-b) Ammo kalkalash yoʻli soʻz yasash usuliga kirmaydi. Chunki kalkalashda soʻzning qismlari boshqa til modeliga mos ravishda tarjima qilinadi. Lekin bu oddiy tarjima emas, bunda oʻsha soʻzga mos keladigan soʻz qoʻyiladi. (Oʻzbek tili grammatikasi 25-b). Ular sunʼiy tarzda birikadi. (THOʻZAD. 204)

Bizning tahlil obʼyektimizda boʻlinma, aloqachi, tikanli sim toʻsiq (rus. podrazdelenie, oʻzb. boʻlinma –yirikroq harbiy qism tarkibidagi kichikroq harbiy birlik: batalonda-rotada, rotada-vzvod, vzvodda-oddelenie; rus. provolochnie zagrajdeniya; oʻzb tikanli sim toʻsiq) kabilar.

Bulardan tipik namunalar sifatida tubandagilar harakterlidir.

Kalka namunalari

Manbalarda kalkalash usuli leksik kalka va semantik kalka deb ikkiga boʻlinadi. Bulardan leksik kalkani boshqa leksik-semantik modeli asosida yangi soʻz hosil qilish soʻz yasashning bir yoʻlidir deb koʻrsatiladi.⁴²

Oʻzbek tili leksikasining boyishida ayniqsa, harbiy terminologiyaning shakllanishida va rivojlanishida kalkalashning ahamiyati katta: otdelenie –boʻlim, boʻlinma, svyaznoy-alloqachi kabi.

Masalan, Nikolin starshiy serjant Dyakov boshliq bir otdelenie jangchilarni yordamga yubordi (O. «Qq» 82-b) Lekin boʻlinmasida yaxshi bolalar siyrak emasligini bilardi (O. «Qq» 81-b) Dubov va Bektemirga svyaznoy Nikolin

⁴² A.Gʻulomov. Soʻz yasash yoʻllari. Oʻzbek tili grammatikasi I, morfologiya «Fan» Toshkent 1975, 25-b

chaqirayotganini xabar qildi. Do'stlar novcha, beso'naqayroq bo'lsa ham jahannam o'ti orsida yurishning, emaklashning piri bo'lgan svyaznoy orqasidan ketdi (O. «Qq» 202-b)

Qaddi-qomati kelishgan, qirra burun, qoshlari qalam bilan chizilgandek ingichka, qop-qora ko'zlari hamisha jovdirab turadigan aloqachi Azimov qayoqqadir bora turib, birdan shu topda elatlariga qayrildi (O. «Qq» 165-b)

Kalkalash yo'li bilan paydo bo'ladigan konstruksiyalarning ko'pchiligi birikma atamalardan iborat: masalan, *nablyudatel'niy punkt- kuzatish punkti*: Kuzatish punktida bo'lgan mayorning oldiga borguncha o'zini bir necha marta qorga tappa tashlab, artilleriya otashidan saqlanishiga to'g'ri keldi unga. (O. «Qq» 185-b)

Rus tilidan olingan so'zlar ichida abbreviatural ham bor, bular ham o'zbek tilining lesikasini boyitib kelmoqda. O'zbek tilida ruscha-internatsional so'zlar qatlamining o'sa borishi leksikani rivojlantirish bilan birga, xalqlarni va tillarni yaqinlashtirib qisqartma so'zlarning to'la formasining ham o'zlashib ketishi natijasida bunday leksemalarning qo'shma so'z sifatida o'qilishiga yo'l ochadi.⁴³ Masalan: **sanbat**, **kombat**, **pomkom**, **vzvod** singari harbiy qisqartma otlarning ko'pchiligi so'zlarning bosh harflarini olish bilan tuzilgan shartli qisqartmalar ham, so'zlarning birinchi yopiq bo'ginlarini olish bilan tuzilgan qisqartma so'zlar ham rus tilidan o'zlashgan. Masalan **DZOT**, **DOT**, **voenkomat**, **sanbat**, **kombat** va sh.k. misollar:

Voenkomatdan yugirib kelsam, ko'chaga kira olmayman –g'isht, temir-tersak, tutun, o't(O. «Qq» 106-b)

Bektemir ruxsat olib, bir necha yarador bilan **sanbatga** jo'nadi (O, «Qq» 51-b)
General boshqa bir necha komandirlar bilan **kombat** yerto'lasiga kirdi (O, «Qq» 8-b)
Artpolkning klubida kontsert berildi. (O. FB, 24)

Qochdi yana yov tumtaraqay,

⁴³ A.G'ulomov. So'z yasash yo'llari. O'zbek tili grammatikasi «Fan» Toshkent 1975, 38-b

DZOT, blindaj buzildi talay.

Quvdi bizning jangchilar uzoq,

Yov qonidan yer bo'ldi botqoq. (Oybek. Asarlar. I tom, 1957, 148-b. «Yigitning yigiti» she'ridan)

Shubhasiz, yuqoridagi matnlarda ajratib ko'rsatilgan *voenkomat, sanbat, kombat* so'zlari bo'g'inga tenglashuvchi qismlardan tuzilgan qisqartmalardir. Zero, har bir so'z leksemadan birinchi bo'g'in yoki bo'g'inga tenglashuvchi bosh qism olingan va bu qismlar qo'shilib, shartli so'z tarzida tuzilgan. Bu so'zlarning fonetik va grafik qiyofasi bilan odatdagi so'zlardan farq qilmaydi, shu sababli so'z deb qabul qilinadi:

Voenkomat-voenniy komissariat, harbiy komissarlik (RO'HT 59). Sanbat-sanitarniy batalon sanitariya bataloni (RO'HT 211,212). Kombat-komandir batalona-batalon komandiri (RO'HT, 111). DZOT, DOT so'zlari esa shu tarkibga kiradigan so'zlarning bosh tovushidan hosil bo'lgandir.⁴⁴ Qarang.

DZOT-Derevo-zemlyanaya ognevaya tochka-yog'och tuproqli o't ochish nuqtasi (RO'HT, 80-81-b). DOT-dolgovremennaya ognevaya tochka –uzoq muddatga mo'ljallangan o't ochish nuqtasi (Harbiy istehkom). (RINSL 555-b)

Demak, bu usulda harbiy hayotning turli sohalariga oid terminlar yasalihti.

Xullas, kalka va abbreviaturalar ham o'rganilayotgan matn qurshovida fikr bayoni taqozosi bilan muhim leksik vosita vazifasida ko'plab ishlatilganligi qonuniy holdir.

Tadqiqot ob'yektimizdan to'plangan materiallarning tarkibiy tahliliga bagishlangan ishning ikkinchi bobi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Harbiy atamalarning yasalişida ham o'zbek tilida so'z hosil qilish usullaridan affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasash qonuniyatlariga amal qilinadi: razvedkachi, pulemyotchi, aloqachi kabilar o'zbek tilida eng mahsuldor so'z yasovchi sanalgan –chi qo'shimchasi orqali yasalgandir.

⁴⁴ G'ulomov A. O'zbek tili morfologiyasiga kirish. O'zSSSR Fan nishriyoti, Toshkent 1953, 17-b

2. Ikki va undan ortiq qismlarning o‘zaro birikuvidan tuzilgan qo‘shma so‘z shaklidagi atamalar ham talaygina, ular o‘zbek tilidagi kabi kompozitsiya usulida yasalgan qo‘shma so‘z shaklidagi harbiy atamalardir: *bombapana*, *tankotar to‘p*, *lashkarboshi*, *kuzatish punkti* kabilar.

3. Harbiy qatamalarining ma’lum qismi esa so‘z hosil qilishning obbrevatsiya usulida yasalgan: Artpolk-artilleriya polki. Sanbat-sanitariya bataloni kabilar. Shuningdek, kalkalash (semantik kalka) orqali ham ayrim atamalar yasalgan: *svyaznoy-aloqachi*, *zemlyanika-erto‘la* kabilar.

4. Harbiy atamalar sirasida ixchamlikni ta’minlash maqsadida qo‘llaniladigan, lekin ikki qismning birikuvidan tuzilgan qisqartma so‘zlardan farq qiladigan shartli qisqartmalarga teng keladigan ikki atama ham mavjud: DZOT, DO‘T.

Umumiy xulosalar

1. O'zbek harbiy terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi ham umuman o'zbek terminologiyasi kabi o'zbek xalqining tarixi, ijtimoiy hayotdagi barcha voqealar, o'zgarishlar bilan uzviy bogliqdir. Masalan, qattiq yog'ochning ikki uchidan ip tortib egib yarim doira shaklida yasalgan nayza-o'q solib otiladigan eng qadimiy harbiy qurol kamon (f-t)dan O'q otadigan uzun stvolli qo'l quroli miltiqqacha harbiy qurollar: pulemyot, minomyot, bomba; tig' yoki o'qdan saqlanish uchun boshga kiyiladigan dubulg'a (f-t)dan ayni vazifadagi kaska (shlyom) protvogaz-gazniqobgacha bo'lgan qurol-asloha, kiyim-kechaklar tarixi bu xulosaning isbotidir.

2. O'zbek tilida harbiy terminologiyaning rivojlanishi va sayqal topishida Oybek, Shuhrat, I.Rahim, N.Safarov kabi mashhur adiblarning harbiy mavzudagi lavha va ocherklari, qissa va romanlarida ishlatilgan harbiy hayotning turli sohalariga oid so'z-terminlar muhim o'rinlarni egallaydi.

3. Oybek boshqa asarlardagi kabi «Quyosh qoraymas» romanida ham ta'sirchan til, ravon uslub yaratish, davr ruhini berish kabi stilistik maqsadlarda harbiy terminlardan ham o'rinli foydalangan. Bular asar tilining ta'sirchanligini taminlagan. K.Fedin ta'biri bilan aytganda «Quyosh qoraymas»ning yaxshi asar bo'lishida muhim vosita rolini o'ynagan.

Bu o'rinda atiga «Tepmoq» fe'lidan-ki qo'shimchasi bilan yasalgan harbiy qurol qismlaridan birining nomini bildiruvchi tepki atamasini, to'p, minabozlik to'pbozlik, minabozlik atamalarini pichoqbozlik, qilichbozlik atamalariga qiyoslashning o'ziyoq, shuningdek, birgina «til» so'zining ma'nosini eslash kifoyadir.

...Bu qanaqa jang... –yalang minabozlik, to'pbozlik. Men bosdim tepkini fashist qoraqon.

...Quvon: O'tgan kuni ukang Ahmadjon...

«Til» tutib kelishdi-ofitser yo'gon. (I t. 158-159)

4. Romanda ishlatilgan harbiy terminlarning aksariyati rus tili va u orqali fransuz, nemis, lotin kabi bir qator g'arbiy Evropa tillaridan o'zlashgan bo'lib, harbiy hayotning turli sohalariga oid bo'lib, harbiy leksikaga mansubdir.

Ular o'zbek tili lug'atining baynalminal leksik qatlamini tashkil etadi. Bunday harbiy atamalar sirasiga birinchidan efreytor, mayor, general singari harbiy unvon va amallarni bildiruvchi; kaska, shinel kabi harbiy kiyim-kechak nomlarini: avtomat, pulemyot kabi qurol-asloha nomlarini, zemliyanika, lazaret, okop kabi harbiy inshoot nomlarini bildiruvchi juda ko'p atamalar kiradi. Ular badiiy matnda fikr bayoni leksik vositasi vazifasini bajaradi.

So'z yasash qonuniyatining eng mahsuldor usullaridan hisoblangan affiksatsiya va kompozitsiya usullarida yasalgan. Ayni vazifada o'zbekcha –li, -lik. Fors-tojikcha –boz, ruscha –ist qo'shimchalari ot asosdan turli ma'noli ot yasash uchun ishlatilgan.

6. Tahlil qilinayotgan asar leksikasida nablyudatelniy punkt –kuzatish punkti, svyaznoy-aloqachi kabi kalka usulida. DZOT, kombat, sanbant kabi obbreviatura orqali hosil bo'lgan terminlar ham aktiv ishlatilgan. Chunki harbiy terminlar ham lug'at tarkibidagi boshqa so'zlar kabi «...barcha faktlar, barcha fikrlarning libosidir» (A,M.Gorkiy).

7. Tadqiqot ob'yektimizda ikkinchi jahon urushi davriga xos xalqimizning ruhiy holati, ularning fashist gazandalariga nisbatan g'azab va nafrati «O'lim sepmoq», «yer tishlamoq», «qora qanotlar», «Qora balolar» kabi so'z birikmalari orqali yaratilgan yangi frazeologik birliklar orqali, shuningdek, «Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi», «Chuchvarani xom sanamoq», «Yigit so'zidan, arslon izidan qaytmas» kabi o'zbek tilida ilgaridan mavjud frozeologizimlar va xalq maqollari orqali obrazli qilib ifodalagan.

Bunday yangi iboralar ijod qilishda Oybekning so'z tanlash va ularga uslubiy vazifa yuklash mahorati alohida tahsinga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akabirov S, Til va terminologiya. T. 1968
2. Begmatov E. O'zbek tili leksikasining ijtimoiy-siyosiy asoslari. Kitob, «O'zbek tili leksikologiyasi» Toshkent, «Fan», 1981, 41-157-b.
3. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari, Toshkent «Fan» 1985
4. Doniyorov R. O'zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlari tarixidan. Toshkent, «Fan» 1973
5. Donoyorov R. Terminlarni o'zlashtirish mezonlari haqida. Jurnal. O'ZTA, 1991, 6-son, 21-26-betlar.
6. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent, «Fan», 1977
7. Dadaboev H. Eski o'zbek tilida Harbiy terminlarning qo'llanilishi. Jurnal. O'ZTA, 1981, 2-son. 31-38-b.
8. Dadaboev H. Eski o'zbek tilida mudofaa qurol-yaroglarni ifodalovchi terminlar. Jurnal. O'ZTA, 1983, 5-son. 14-18,b
9. Ibrohimov A. «Kelurnoma»da qayd qilingan Harbiy terminlar. Jurnal. O'ZTA. 1976, 1-son. 72-81-b.
10. Sorokoletov F,P. Istoriya voennoy leksiki v russkom yazo'ke. Izd «Nauka» L., 1970
11. Mamatov N. Terminlarning ta'rifi haqida. Jurnal. O'ZTA, 1966, 1-son. 66-bet. Mamatov N. Qo'shma so'zlar tabiati va tarixiga doir. Jurnal. O'ZTA, 1975, 1-son. 33-37
12. Matgoziev A. Harbiy terminlarning tarixiga doir. Jurnal. O'ZTA, 1974, 1-son. 46-50-b.
13. ShoabduraHmonov Sh. Oybek romanlarining til. Jurnal «Sharq yulduzi» 1965, 10-son, 106-116-b.
14. Shamsiddinov H. Oybek asarlarida terminlarning ishlatilishi. To'plam. «Tilshunoslik masalalari», Toshkent, «Fan», 1978, 153-158-bet.

15. G'ulomov A. O'zbek tili morfologiyasiga kirish. Toshkent. «Fan», 1953.
16. G'ulomov A. So'z yasash yo'llari Kitob. «O'zbek tili grammatikasi 1» Morfologiya. «Fan», Toshkent, 1975, 21-46, b
17. Hojiev A, O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. Toshkent, «Fan», 1963.
18. Hozirgi o'zbek adabiy tili 1. Toshken, «Fan», 1966. 189-194-betlar.
19. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. So'z yasalishi. Toshkent, «O'qituvchi», 1980, 167-186-b.
20. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, «O'zbekiston», 1992, So'z yasalishi. 198-235-b.
21. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, «Fan» 1957, (F.Kamol. tahririda) So'z yasalishi. 294-302-betlar.
22. Badiiy matnlar.
23. Oybek, Quyosh qoraymas. T. 1977
24. Oybek. Asarlar I. 1957. Front bo'ylab. 136-463-betlar.
25. Oybek. Fron bo'ylab (kundalik daftaridan). Toshkent, 1965.

MUNDARIJA:

Kirish

Asoslama.

Mavzuning dolzarbligi uni o‘rganishning ahamiyati

I BOB. Oybekning «Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan harbiy terminlarning ba’zi leksik-semantik xususiyatlari va uslubiy qo‘llanilishi.

.....

4- O‘zlashgan harbiy atamalar.....

5- Harbiy atamalarning mavzuviy tasnifi.....

6- Harbiy atamalarning uslubiy qo‘llanilishi.....

II BOB «Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan harbiy terminlarning grammatik xususiyatlari.....

4- Harbiy atamalarning affiksatsiya usulida yasalishi.....

5- Harbiy atamalarning kompozitsiya usulida yasalishi.....

6- Harbiy leksikada obbreviatura va kalkalash usuli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

**Ajinoiyozi nomidagi NDPI filologiya fakultetining 4-kurs tolibi
Abdullayev Rustambekning Badiiy asarlarda harbiy atamalarning
qo'llanilishi (Oybek asarlari misolida) mavzusidagi malakaviy ishi haqida
ilmiy rahbarning**

XULOSALARI

A.Matg'oziev, H.Dadaboev, R.Doniyorov, H.Shamsiddinovlarning maqolalaridan tashqari o'zbek tili harbiy terminlar, jumladan, Oybek ijodida bu muammo maxsus tadqiqot ob'yekti bo'lgan emas. Begzod Rahimovning mazkur ishi «Quyosh qoraymas» romanining tilshunoslik yo'nalishida o'rganilishi misolida ana shu masalaga bag'ishlangani uchun malakaviy ish mavzusi dolzarb sanaladi.

Ishning «Kirish» qismida 4 ta masala so'z qilingan. 1. Harbiy terminlarning o'rganilishidan qisqacha ma'lumot. 2. Harbiy terminlarning rivoji va sayqal tolpishi. 3. Oybek harbiy terminlarining o'rganilishidan ma'lumot. 4. Umumo'zbek terminologiyasining o'rganilishi. Bulardan harbiy romanlar leksikasida, jumladan, «Quyosh qoraymas»dagi harbiy atamalarni maxsus tadqiq qilishning lisoniy, pedagogik-ma'rifiy ahamiyati to'g'ri ta'kidlangan: *yasov-sof*, *to'p-zambarak-artilleriya*, *tug'-yasov-bayroq* kabilar.

Malakaviy ishning birinchi bobida lingvistik tahlil ob'yektidan harbiy hayotning turli sohalariga oid terminlar saralangan bo'lib, ular qurol-aslaha, kiyim-kechak, amal-unvon, inshoot-o'rin-joy kabi ma'nolarni ifodalovchi lug'aviy birliklar sifatida semantik tasnif qilingan va matn qurshovidagi uslubiy vazifasi aniq ko'rsatilgan. Bular matn tarkibida adib qo'llagan okop, soldat, mayor, blindaj, tikanli sim to'siq, kaska, avtomat, vzvot rota, shinel, snaryad, serjant, polk singari yuzlab harbiy atamalardir.

Ish mazmunidan ayonkim, ko'rsatilgan harbiy terminlar faqat matn qurshovida fikr bayoniga misol sifatida keltirish bilan cheklanib qolinmagan, balki Begzod Rahimov ularni bir qator lug'atlarga: «Ruscha-O'zbekcha harbiy terminlar lug'ati», «Ruscha internotsional so'zlar lug'ati» hamda mavjud izohli lug'atlarga

qiyoslab, nihoyatda aniq etimologik ma'lumotlar ham bergankim, bular alohida ahamiyatga molikdir.

Ishning ikkinchi bobida uchta maxsus paragrafda: Harbiy terminlarning affiksatsiya usulida yasalishi, kompozitsiya usulida yasalishi, harbiy leksikada abbreviatura va kalkalash usuli xususida mufassal ma'lumot berilgan. Bular aloqachi, razvedkachi, tankist; kombat, kuzatish-punkti, tikanli sim to'siq; DZOT, DOT kabilardir.

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan faktlar, ta'kidlarimiz malakaviy ish mavzusiga qo'yilgan talab, maqsad hamda vazifalarning to'la-to'kis, benuqson bajarilganligining yaqqol dalilidir.

Ishning «Kirish», «Asoslama» qismlari va alohida-alohida boblarining har bir paragraflaridagi umumlashma xulosalar, faktlarga munosabat uchun tadqiqotchining vazifalari va shu kabilar ishning g'oyat mazmundorligini bekam-uko'st nihoyasiga yetganligini ko'rsatuvchi omillardir.

Ana shular asosida ishni nihoyasiga yetgan hisoblab, uni ommaviy himoyaga tavsiya qilamiz.

Ilmiy rahbar: _____ Sh. Bo'ronova.

**Ajinoiyo nomidagi NDPI filologiya fakultetining 4-kurs tolibi Abdullayev
Rustambekning “Badiiy asarlarda harbiy atamalarning qo’llanilishi (Oybek
asarlari asarlari misolida)” mavzusidagi malakaviy ishi haqida ishga qisqacha
Taqriz**

Fikr bildirilayotgan tadqiqot mavzusi uchun asosan Oybekning Ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan «Quyosh qaraymas» romani tanlangan. Ba’zi faktlar uning shevalaridan hamda «Front bo’ylab» kundalik daftaridan tanlangan: to’pchi, jangchi, taksist, razvedkachi, snaryad va shu kabilarning rivojiga qo’shgan hissasini ko’rsatish malakaviy ishning maqsad, vazifalari qilib belgilangan.

Mavzuning dolzarbligi esa alohida bir adibning muayyan asarini sohalar atamashunosligi uchun tahlilga tortishda faqat shu adibning ijodidagina ishlatilgan atama o’zbek atamashunosligiga tipik namuna bo’lib kirajagi bilan isbotlangan: Oybekda tunqotar, bronteshar; A.Qahhorda gaznikob kabilar, fikrimizcha, o’rinli va ilman to’g’ri ta’kidlardir.

Malakaviy ish mavzusi taqozasida mazkur tadqiqotning mazmuni hamda maqsadi-yu vazifalari ishning «Kirish», «Asoslama» qismlari va maxsus ikkita bobida mufassal qilingan. Masalan, R.Abdullayev ishining «Kirish» qismida harbiy terminlarning o’rganilish tarixidan, rivoji va sayqal topishidan, Oybek harbiy leksikasining o’rganilishidan eng zarur ma’lumotlar, ayrim qaydlarni o’rinli keltirgan. Zero, ular malakaviy ish uchun tanlangan asosiy ob’jekt bo’lmish «Quyosh qaraymas» romanida badiiy tasvirning leksik vositasi sifatida qo’llanilgan harbiy terminlarini leksik-semantik va uslubiy tahlilga tortish uchun mantiqiy isbotdir.

Ayni ma’noda Oybekning «Quyosh qaraymas» romanida ishlatilgan harbiy terminlarning ba’zi leksik – semantik xususiyatlari va uslubiy qo’llanishi deb nomlangan birinchi bobdagi fikr- mulohazalar diqqatga sazovardir. Zero, ish muallifi qator izohli lug’atlarga qiyoslagan holda armiya, leytenant, ataka, kaska singari o’nlab atamalar etimologik jihatdan fransuz tiliga, efreytor, shtab, granata kabi qator harbiy atamalarning etimologik jihatdan nemis tiliga mansub bo’lib,

ularning o'zbek atamashunosligiga rus tili orqali o'zlashganligi haqidagi fikr-mulohazalari, matn qurshovida badiiy uslubning leksik vositalari vazifasida qo'llanishi haqidagi xulosalari haqqoniydir.

Darhaqiqat, harbiy atamalar ham mazmun planida nominativlik funktsiyani bajaradi. Ular harbiy unvon-u amallar: efreytor, mayor, kombat va sh.k; qurol-asloha nomlarini: minomyot, disk(a), shompol; harbiy libos nomlarini: shinel, pilotka; harbiy inshoot, o'rin-joy nomlarini; okop, blindaj va sh.k.lar.

Bu tasnifdagi har bir atama matn qo'rshovida malakaviy ish muallifi tomonidan mufassal tahlil qilingan, etimologiyasi to'g'ri ko'rsatilgan.

Ikkinchi bobda «Quyosh qaraymas» romanida ishlatilgan harbiy atamalarning –chi, ist, -boz, -bozlik, -li,-lash,-ki kabi qo'shimchalar orqali affiksatsiya usulida yasalishi hamda asoslarni qo'shich bilan: yer to'la, toshqotar, tankyoqar kabilarning kompazitsiya usulida yasalishi xususida asosli fikr-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, mazkur bobning uchinchi paragrafida harbiy leksikadagi sanbat, kombat,DZOT kabi qisqartmalarning abbreviatsiya usulida yasalganligi tavsif-u tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, juz'iy xarakterdagi fikr bayoniga dahldor uslubiy, bo'g'in ko'chirish, hovola belgilaridagi nuqsonlaridan qa'tiy nazar, ish g'oyat mazmunlidir, muallif sinchkovlik bilan faktlar to'plagan va ularni ilman to'g'ri tahlil qilgan, muhim xulosalar chiqargan. Ayni ta'kidlarimiz asosida Rustam Abdullayevning «Quyosh qaraymas» romani misolida nihoyasiga etkazilgan mazkur malakaviy ishini eng mazmundor savodli yozilgan ishlar sirasida ijobiy baholash lozim deb o'ylaymiz.

Taqrizchi:

f.fn. NDPI «Qoraqalpoq til

bilimi» kafedrasining

katta o'qituvchisi B. Yusupova

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIM VAZIRLIGI AJINIYOZ
NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Kafedra: O`zbek tilshunosligi    Ilmiy rahbar: p.f.n Sh. Bo`ronova

O`QUV YILI: 2013-2014

«Badiiy asarlarda harbiy atamalarning qo`llanilishi (Oybek asarlari misolida)»

MUALLIF ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi- maxsus tatqiqot ob'yekti bo'lmagan alohida olingan harbiy roman matnida qo'llanilgan harbiy leksikaning tatqiqotiga bag'ishlanganligi bilan izohlanadi.

Tatqiqotning maqsadi, vazifalari «Quyosh qoraymas» romanida qo'llanilgan harbiy atamalarni mavzuviy tasnif qilish, leksik-semantik, grammatik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Oybekning «Quyosh qoraymas» romani tatqiqotining asosiy ob'yekti, unda qo'llanilgan harbiy atamalarni etimologik, qiyosiy-tavsifiy tadqiq qilish, grammatik jihatdan yasaliş yo'llarini aniqlash esa tatqiqotning predmeti hisoblanadi.

Tatqiqot uslubi va uslublari etimologik, qiyosiy-tavsifiydir.

Tatqiqot natijalarini ilmiy jihatdan yangilik darajasi qator harbiy atamalar etimologiyasini manbalar asosida aniqlash, kalkalar, abbrevituralarda ham tilda mavjud qonuniyatlarga amal qilinadiganligi haqida umumlashgan xulosada namayon bo'ladi.

Tatqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiri «Badiiy matnni lisoniy tahlil» qilish kabi maxsus kurslar uchun andozoviy material bo'la olishidadir.

Ish tarkiban «Kirish», «asoslama» va ikkita bobdan iborat.

Bajariladigan ishning asosiy natijalari harbiy terminlarning etimologik manbalarini aniqlash, ularni mavzuviy tasnif qilish, uslubiy qo'llanishi harbiy atamalarning affiksatsiya usulida yasaliş, abbreviatsiyalarning tahlilidan iborat.

Xulosa va takliflar; Til, ayniqsa, uning leksikasi xalq tarixi ko'zgusi bo'lganligidan talabalarni tilshunoslik yo'nalashida badiiy matnni tahlil qilishga o'rgatish maqsadida malakaviy ish sifatida bunday mavzularni mutassil tavsiya qila borish lozim

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: «Badiiy matnni lisoniy tahlil» qilish kabi maxsus kurslar uchun andozoviy material bo'la olishidadir. Shuningdek, bakalavr talabalari ona tili o'qitish metodikasi darslarida amaliy material sifatida, pedagogik amaliyot davomida qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Ish tuzilishi va tarkibi: Tadqiqotimiz tuzilish jihatdan «Kirish», "Asoslama", ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning «Kirish»qismida 4 ta masala qayd qilindi: 1. Harbiy terminlar va uning o'rganilishidan qisqacha ma'lumot. 2. Harbiy terminlar rivoji va sayqal topishidan qaydlar. 3. Oybek harbiy leksikasi o'rganilishidan ba'zi qaydlar. 4. Umumo'zbek terminologiyasining o'rganilishidan qaydlar.

Malakaviy ishning birinchi bobi **«Oybekning «Quyosh qoraymas» romanida ishlangan harbiy terminlarning ba'zi leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari»** deb nomlanadi. Mazkur bobda fors-tojik, arab, rus tili va u orqali ovrupa tillaridan o'zlashgan harbiy atamalar tavsifu tahlil qilinadi. Bu bir. Ikkinchidan, harbiy atamalarning mufassal mavzuviy tasnifi ko'rsatildi va nihoyat, harbiy atamalarning matn qurshovida uslubiy qo'llanishi so'z qilindi. Bunday atamalarning frazemalar, poremalar tarkibida ishlatilishi manbalarga qiyosan sharxlandi.

Ishning ikkinchi bobi «Quyosh qoraymas» romanida ishlatilgan harbiy terminlarning grammatik xususiyatlari deb nomlandi.

Bu bobda harbiy terminlarning affiksatsiya usulida yasalishi: *Tankist, razvedkachi*, mazkur bobning ikkinchi paragrafida harbiy atamalarning kompozitsiya usulida yasalishi: *kombat, kuzatish punkti, tikanli sim, to'siq* kabilar,

shuningdek, ba'zi abbreviatura: **DZOT**, DOT kabilar nazariy manbalarga qiyosan tahlil qilinadi.

Tavsif-u tahlillarimizdan kelib chiqqan holda, ishning oxirida mufassal umumiy xulosalarimiz qayd qilindi.

Ilmiy rahbar:

p.f.n. Sh. Bo'ranova

Talaba